

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri



«O'G'LIM VATANIGA SODIQ FARZAND!»

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan Ichki ishlar vazirligi Qorovul qo'shinlariga qarashli 7534-harbiy qismda «Postda-Ha nocry» gazetasi va «Qalqon-Щит» jurnali Birlashgan tahririyati ijodiy jamoasi hamda Qorovul qo'shinlari qo'mondonligi Faxriylar kengashi a'zolari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

(Davomi 4-betda.)

«VATAN — MUQADDAS, UNI HIMOYA
QILISH MUQADDAS BURCHDIR!»
ijodiy tanloviga

XALQ TINCHLIGI POSBONLARI

Jasursiz, botirsiz, metin iroda,
Har ishda mohir-u ilmi ziyoda.
Siz borsiz xavf-xatar chekinar, shaksiz,
Tinchlik bo'lsin, deysiz, butun dunyoda.
Qonun va adolat tomonisizlar,
Osoyishtalikning posbonisizlar.

Murosa qilmaysiz jinoyat bilan,
Tartibni saqlaysiz shijoat bilan.
Kamarbasta erur xalqning ishonchi,
Yovga g'ov bo'lasiz matonat bilan.
Qonun va adolat tomonisizlar,
Osoyishtalikning posbonisizlar.

Doimo sergaksiz, xizmatga shaysiz,
Behalovat tunni kunga ulaysiz,
Inson huquqlarin himoyachisi,
Millat deb, Vatan deb, xalq deb yashaysiz.
Qonun va adolat tomonisizlar,
Osoyishtalikning posbonisizlar.

Qaerda notinchlik bo'lsa — shunda siz,
Goh sahar, goh xufton, gohi tunda siz.
Yengilar falokat, tabiiy ofat,
Horishni bilmaysiz, safda kunda siz.
Qonun va adolat tomonisizlar,
Osoyishtalikning posbonisizlar.

Siz o'zbek farzandi, yigitning zo'ri,
Qalbingizda mudom Vatan sururi.
Qat'iyat, shijoat shioringizdir,
Ko'ksingizda urar millat g'ururi.
Qonun va adolat tomonisizlar,
Osoyishtalikning posbonisizlar.

Hulkar ABDULLAEVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti talabasi.



ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ комплекс ўрганилди

Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант А. Ташпулатов раҳбарлигидаги вазирлик ишчи гуруҳи Андижон вилояти шаҳар ва туманларида бўлиб, криминоген вазияти мураккаб деб баҳоланган маҳаллаларда олиб борилаётган профилактик ишлар самардорлигини ўрганди. Хусусан, Балиқчи тумани ИИБда жиноят ва ҳуқуқбузарликларни барвақт аниқлаш, аҳоли билан ишлаш, ёшлар ва вояга етмаганлар ўртасида жиноятчиликка олиб келаётган омилларни бартараф этиш бўйича амалга оширилаётган ишлар таҳлил қилинди. Мавжуд муаммоларни ўрганиш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва салбий ҳолатларнинг туб сабабларини аниқлаш юзасидан масъулларга аниқ топшириқлар берилди.



Шунингдек, вилоятни Қирғиз Республикаси билан боғловчи «Дўстлик» чегара божхона пости, Хонобод шаҳрининг чегарадош ҳудудлари ҳамда Қўрғонтепа туманидаги «Марказий деҳқон бозори» фаолияти ўрганилди. Чегара хавфсизлигини таъминлаш, божхона органлари билан ҳамкорликни кучайтириш, қонунбузарликларнинг олдини олиш, замонавий техник воситалардан фойдаланиш ҳамда савдо жараёнларининг қонунийлиги ва нарх-наволар барқарорлигини таъминлаш масалалари бўйича раҳбарлар ахборот берди. Аҳоли учун хавфсиз ва шаффоф муҳит яратиш зарурлиги алоҳида қайд этилди.

Республика ишчи гуруҳининг вилоят ички ишлар органлари фаолиятининг йил якунига бағишланган танқидий йиғилишида хизмат натижалари, жамоат хавфсизлигини таъминлаш, шахсий таркибнинг касбий тайёргарлиги ва хизмат интизоми атрофлича муҳокама қилинди. Йиғилишда юқори кўрсаткичларга эришган бир гуруҳ ходимлар Ички ишлар вазирининг буйруғи билан рағбатлантирилди, айрим раҳбар ва ходимларга нисбатан эса интизомий чоралар қўлланилди.

Саминжон ҲУСАНЗОДА,
ўз мухбиримиз.

Андижон вилояти.

Qaror va vazifalar

YAXLIT TIZIM YANADA TAKOMILLASHADI

О'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi «Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq:

2026-yilda kriminogen vaziyati og'ir mahallalar – tuman (sha-har) hokimlari, prokurorlari hamda ichki ishlar organlari boshliqlari va ularning o'rinbosarlariga;

беш yildan buyon «qizil» toifada bo'layotgan mahallalar – Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalari boshliqlari, viloyat darajasidagi ichki ishlar organlari rahbarlarining va hokimlarning o'rinbosarlariga;

uch yildan buyon «qizil» toifada qolayotgan mahallalar – huquq-tartibot idoralarining ta'lim va ilmiy tashkilotlariga;

kriminogen vaziyati eng og'ir tuman va shaharlar – viloyatlar darajasidagi prokurorlarning va ichki ishlar organlari rah-

barlarining birinchi o'rinbosarlariga birlashtiriladi.

Mahallalarda xavfsiz muhit yaratish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijadorligi **har oy yakunida** – viloyat prokurorlari va ichki ishlar organlari boshliqlari huzurida, **har chorak yakunida** Ichki ishlar vaziri va Bosh prokuror huzurida tegishli viloyat va respublika rahbarlari ishtirokida tanqidiy muhokama qilinadi.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan 2026-yil yakuniga qadar fuqarolarning huquqbuzarliklari to'g'risidagi **og'zaki murojaatlarini soha va hududidan qat'i nazar**, ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat plan-shetlari orqali real vaqt



Suratda: Yakkasaroy tumani «Dilbuloq» MFY profilaktika katta inspektori, katta leytenant Obidjon Qo'ldoshev mahalla faollari bilan.

rejimida yagona tartibda qabul qilish hamda tegishlilik bo'yicha **tez-korlik bilan munosabat bildirish** amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

2026-yil 1-noyabrga qadar fuqarolar tomonidan mahalla profilaktika inspektorlari bilan **onlayn muloqot qilish, foto, audio, video va tashvish xabarla-**

rini yuborish, shuningdek, ularning faoliyatiga **bahoberish** imkoniyatini beruvchi **«Mening inspektorim»** mobil ilovasi ishlab chiqish va ommalashtirish choralari ko'riladi.

Manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda **2026-yil 1-mayga qadar** «E-ijtimoiy profilaktika» axborot tizimining «E-ni-

zoli oila» moduli joriy etilib, ushbu modul sudlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilinadi.

2026-yil 1-iyulga qadar boshqa hududlarning kriminogen vaziyati og'ir va murakkab mahallalarida ham **mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyati yo'lga qo'yiladi.**

Муносабат

КАРВОН ЮКСАКНИ КЎЗЛАЯПТИ

Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатини тинглаб

Зокиржон АЛМАТОВ,
Ички ишлар вазирининг маслаҳатчиси,
генерал-полковник.



Президентимизнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси мамлакатимизнинг келгуси тараққиётини белгилаб берадиган том маънодаги стратегик, тарихий ҳужжат бўлди. Унда 2026 йилда амалга ошириладиган энг муҳим 6 та устувор йўналишдан иборат дастур ўз ифодасини топган. Қуйида уларнинг айримлари хусусида тўхталиб ўтмоқчиман.

Биринчи устувор йўналиш маҳалла инфратузилмасини ҳар томонлама ривожлантириш чора-тадбирларини кўзда тутати. Зеро, маҳалла ривожланса, мамлакат тараққий этади, жамият юксалади. Бу вазифаларни бажаришга маҳалла еттилигининг аъзоси сифатида ҳудудий профилактика инспекторлари ҳам муносиб ҳисса қўшишлари лозим.

Президентимиз 2026 йилда ҳам суд-ҳуқуқ тизимидаги ислохотлар изчил давом эттирилишини таъкидладилар. Бу бевосита ички ишлар органларига ҳам тааллуқлидир. Ушбу жараёнда аҳолига давлат хизматларини кўрсатишда ахборот-коммуникация технологияларидан кенг фойдаланиш, рақамлаштириш ишларини жадаллаштиришга алоҳида эътибор қаратилади. Келгусида ички ишлар органларида жиноят ҳақидаги аризани қабул қилишдан бошлаб, то ишни судга ўтказишгача бўлган босқичларга сунъий интеллект технологиялари жорий этилади.

Юртбошимиз афсус билан қайд этганларидек, гиёҳвандлик хавфи мамлакатимизни ҳам четлаб ўтмаяпти, ҳатто аҳоли генофонди учун энг катта таҳдидга айланиб бормоқда. Ушбу иллатга қарши муваффақиятли курашиш учун ходимларимиз маҳалла фаоллари, кенг жамоатчилик билан яқин ҳамкорлик қилишлари даркор. Сўнгги йилларда юз бераётган аёллар ва болаларга нисбатан

оилавий зўравонлик ҳолатлари барчамизни жиддий ташвишга солаётган эди. Президентимиз бу оғриқли масалага ҳам батафсил тўхталиб, Аёллар ва болаларга нисбатан зўравонликнинг олдини олиш бўйича республика мувофиқлаштирувчи кенгашига бундай салбий ҳолатларга барҳам бериш борасида топшириқлар бердилар. Ушбу муаммони ҳал этишда ички ишлар органларининг тегишли соҳавий хизматлари ходимлар камарбаста бўладилар, деб ишонаман.

Мурожаатномага мувофиқ, коррупцияга қарши курашиш бўйича 2026 йилда «фавқулодда ҳолат» эълон қилинди. Ходимларимиз давлат тараққиётига тўсиқ бўладиган, адолат ва қонун устуворлигини издан чиқарадиган мазкур иллатга қарши курашувчиларнинг олдинги сафида бўлишлари лозим.

Давлатимиз раҳбари: «Бугунги кунда жамиятимизда турли хил фикр ва қарашлар бўлиши табиий. Бу – демократиянинг бирламчи талаби. Аммо, миллати, тили ва динидан қатъи назар, бутун эл-юртимизни бирлаштирадиган улуғ бир ғоя бор. У ҳам бўлса, Ватан манфаати, халқимиз манфаатидир», – дея алоҳида таъкидладилар.

Мурожаатнома ва унинг асосида қабул қилинадиган Давлат дастури ана шу эзгу ғояни амалга ошириш йўлида хизмат қилиши шубҳасиз.

Камина давлат раҳбарининг учта ана шундай мурожаатини бевосита тинглаган гувоҳман. Илгари бундай жараёнда кўтарилган масалалар нуқтаи назаридан келиб чиқиб айта оламанки, бу галги мурожаат чинакамига халқимиз учун саодат концепцияси бўлди. Буни исботлаш учун ислохотларимизнинг самараларига қарашнинг ўзи кифоя.

Биринчидан, демократик жараёнлар, қонунчилик, сиёсий тизим халқаро андазаларга мос равишда ўзгариб борапти. Жамоатчилик назорати етакчи ўринга чиқмоқда.

Иккинчидан, иқтисодий интеграллашув жараёнида Ўзбекистон билан ҳамкорлик қилувчи давлатлар сони ортиб, хорижий инвестициялар миқдори кўпаймоқда. Ўз навбатида, экспорт ҳажми айрим соҳаларда 2-3 бараварга кўпаймоқда. Саноатимизга юксак технология кириб келди.

Учинчидан, камбағалликни қисқартириш жараёнида касб-ҳунар ўргатиш тизими юзага келди. Ўрта бизнес қарор топди. У ёки бу соҳага ихтисослашган маҳаллалар юзага келди.

Тўртинчидан, ижтимоий соҳага эътибор кучайди. Таълим тизимида маошлар кўтарилди, иқтидорли ёшларни рағбатлантириш тизими яратилди.

Бешинчидан, Ўзбекистон халқаро ҳамжамиятда ўз ўрнини топди. Жуда кўп соҳалар бўйича халқаро рейтингларда анча юқориладик.

Айнан ана шу сабаблар туфайли ҳам давр бизни энди тараққиётнинг янги босқичига даъват этмоқда. Бу ниятларимиз халқнинг муҳокамасидан ўтган «Ўзбекистон – 2030 тараққиёт стратегиясида» баён этилди.

Президент таъкидлаганидек, бу стратегияда белгиланган вазифалар муддатдан олдин ижро этила бошланди. Мисол учун ялпи маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, камбағалликни қисқартириш борасида 2-3 йил илгариларганимиз рост. Айниқса, саноатимизга юксак технология, кимё, сунъий интеллектнинг кириб келиши тараққиётимизнинг янги босқичини бошлаб берапти. Шунинг учун ҳам давлатимиз раҳбари «Ўзбекистон – 2030 тараққиёт стратегияси»ни таҳрир қилиш, унга янги, залворли таклифларни киритди.

Катта карвон узоқ манзилларни кўзлаши керак. Оғир,



Фармон ТОШЕВ,
Ўзбекистон Республикасида
хизмат кўрсатган журналист,
ИИБ ҳузуридаги
Жамоатчилик кенгаши
аъзоси.

машаққатли даврдан ўтдик. Бугунги тараққиёт осонликча қўлга киритилмади, лекин биз бу муддат ичида тажриба орттирдик, иродамиз, бардошимиз, иқтидоримиз, керак бўлса иймонимиз синовдан ўтди. Биз ҳар қандай оғир юмушларни ҳам уддалай олишимизга ишондик.

Мурожаатда 2026 йилни – «Маҳаллани ривожлантириш ва жамиятни юксалтириш йили» деб эълон қилиниши жуда ўринли. Чунки давлат сиёсатининг ҳар бир хонадонга кириб боришида маҳалла муҳим роль ўйнайди. Жамиятни юксалтириш эса бу – энг аввало инсон қадрининг улуғланиши билан боғлиқ, яъни фуқароларга уларнинг эркин яшаши, ишлаши, ҳаёт кечириши учун барча шароитларни яратиш зарур. Зеро, бунинг учун энг аввало мамлакат иқтисодиётини технологик ва инновацион ўсиш моделига ўтказиш, ички бозор талабини рағбатлантириш ҳамда янги меҳнат бозори архитектура-сини яратиш зарурдир.

Давлатимиз раҳбари айнан ана шу вазифаларни чуқур таҳлил асосида бизга тушунтириб берди.

Табиийки, тараққиётнинг энг катта нишонаси бу – жамиятдаги барқарорлик, тинчлик ва юксак маънавиятдир. Бундай жамиятда қонун бузилишини ҳар бир фуқаро виждонга қарши иш деб баҳолайди. Жамиятнинг ўзи ҳуқуқбузарликка қарши курашади. Демак, мурожаатноманинг асл мақсади ҳам инсон қадрини улуғлашдир.

«O'G'LIM VATANIGA SODIQ FARZAND!»

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Tadbir davomida harbiy xizmatchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishilib, tahririyat tomonidan chop etilgan kitoblar va badiiy adabiyotlar namunali xizmat o'tayotgan askarlarga sovg'a tariqasida ulashildi. Ushbu adabiyotlar shaxsiy tarkibning ma'naviy olamini boyitish, intellektual salohiyatini yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirishda muhim manba

bo'lib xizmat qilishi alohida ta'kidlandi.

Uchrashuvda so'zga chiqqan IIV Faxriylar kengashi raisi o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor, iste'fodagi polkovnik Abdug'afur Sattorov hamda IIV Qorovul qo'shinlari qo'mondonligi Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi polkovnik Tohir Soatov tizimning shakllanish tarixi haqidagi xotiralari bilan o'rtoqlashish asnosida bugungi kunda xizmat o'tash uchun yaratilgan zamonaviy sharoitlarga yuqori baho berishdi hamda yosh Vatan hi-



moyachilarini muqaddas qasamyodga sodiq qolgan holda, o'z ustida tinimsiz ishlashga va tinchlikni ko'z qorachig'idek asrashga chorlashdi.

Tadbir yakunida namunali intizomi va faol fuqarolik pozitsiyasi bilan ajralib turgan bir guruh xodimlar Birlashgan tahririyatning esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Shuningdek, askarlarga namuna bo'layotgan harbiy xizmatchilarga ham kitoblar to'plami topshirildi.

Tadbirning eng hayajonli lahzalaridan biri namunali xizmat qilayotgan oddiy askarlar Shohrux-

jon Mansurov va Feruzjon Bakoyevlarning ota-onalariga tashakkurnomalar topshirilishi bo'ldi.

– O'g'lim shunday yurtning farzandi, Vatan himoyachisi ekanligidan yana bir bor g'ururlandim. Uning o'z burchini a'lo darajada bajarayotgani uchun komandirlaridan rahmatlar eshitib, ko'nglim tog'dek ko'tarildi. Ona uchun o'z farzandi orqasidan yaxshi gap eshitishdan ortiq baxt bo'lmasa kerak, – deydi Gulchehra Bakoyeva.

O'z muxbirimiz.

Ayol va jamiyat

E'TIROF ETILGAN XIZMAT



Farzand tarbiyasi, uy yumushlaridan ortib qaysidir sohada yutuqqa erishishi ayolning katta bilim va kuchli iroda sohibi ekanligidan dalolat. Shu ma'noda, zamonaviy ayolni nafaqat sadoqat timsoli, balki el-yurt tinchligining posboni sifatida ham qadrlaymiz. Kasbga sadoqatli shunday dilbar ayollardan biri Buxoro shahar IIOFMB 3-sonli IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, kapitan Dilnoza Ashurovadir.

D. Ashurova xotin-qizlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, og'ir ijtimoiy

vaziyatga tushib qolgan ayollarga ko'mak berish, oilaviy ajrimlarni kamaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelyapti. Shu maqsadda davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ichki ishlar organlarining boshqa bo'linmalari bilan yaqin hamkorlikda ish olib bormoqda. Xususan, mahallalarda o'tkazilayotgan uchrashuvlarda hamda uyma-uy yurib, xotin-qizlar muammolarini o'rganishda ancha faol.

Lavhamiz qahramoni 2 ta o'g'rilik va giyohvandlik vositasi bilan bog'liq

jinoyatni «issiq izida» fosh etdi, 2 nafar bedarak yo'qolgan xotin-qizni oilasiga qaytardi. Shuningdek, 40 nafar probatsiya hisobida turuvchi hamda 100 nafardan ortiq jinoyat sodir qilishga moyil bo'lgan xotin-qizlar bilan doimiy ravishda profilaktik ishlarni amalga oshirdi. Natijada unga biriktirilgan mahallalarda ayollar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyat va huquqbuzarlik holatlari keskin kamayishiga erishdi.

Bundan tashqari, oila-turmush doirasida sodir etilgan tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyat va huquqbuzarlik holatlarini mahallalarda o'z vaqtida muhokama qilib kelyapti. Ayniqsa, «Ayollar daf-tari»ga kiritilgan, uzoq muddatga ketganlarning farzandlari bilan ishlash, xotin-qizlarni kasbga o'rgatish orqali bandligini ta'minlash, jazoni ijro etish muassasalarida jazo mud-datini o'tayotgan mahkumlarning oilalari va farzandlari bilan ishlash, qolaversa, moddiy jihatdan qiy-nalangan, ajrashish yoqasiga kelib qolgan, muammoli oilalar bilan profilaktik tadbirlarni olib borish orqali ayollarni har tomonlama himoya qilish ham kapitan D. Ashurovaning diqqat markazida turadi.

Ta'kidlash joizki, Dilnoza o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashish bilan birga, ikki yosh ayol xodimga xizmatning sir-asrorlari, o'ziga xos tomonlari, murakkabliklari haqida batafsil tushunchalar berib, mu-rabbiylik vazifasini a'lo darajada bajarmoqda.

Lavhamiz qahramoni hech qachon vaqtini behuda o'tkazmaydi, bo'sh paytlarida badiiy asarlar mu-tolaa qiladi. Oilada esa mehribon va talabchan ona sifatida farzandlari tarbiyasiga alohida mas'uliyat bilan yondashadi. Turmush o'rtog'i Aziz Turdiyev uning yurt tinchligi yo'lidagi fidoyiligini qadrlaydi va qo'llab-quvvatlaydi.

Qisqasi, xizmatlarda toblanib borayotgan D. Ashurova o'zining halol xizmati, erishayotgan natijalari tufayli deyarli har yil yakunlari va turli bayramlar munosabati bilan rahbariyat tomonidan rag'batlantirib kelinmoqda. O'tgan yil yakuni bo'yicha viloyatda o'tkazilgan «Yil ayoli» va «Gender tenglik faoli» milliy tanlovida faxrli birinchi o'rinni egallagani ham fikrimiz isboti bo'la oladi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



Kinologiya xizmati

Samarqand viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi 1-sonli kinologiya guruhi komandiri, serjant Javlonbek Boboyev qo'l ostida 9 nafar kinolog xodim bilan Samarqand shahri, Samarqand, Pstdarg'om tumanlari hamda Temiryo'l vokzali va aeroport hududlarida xizmat olib boradi.

KO'RINMAS QAHRAMONLAR

Lavhamiz qahramoni 2020-yilda o'ziga birlashtirilgan «Grom» laqabli ovcharka zotli iti bilan IIV Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi o'quv markazida giyohvandlik vositalarini qidirib topish yo'nalishi bo'yicha o'qib kelgan. Hozirgi kunda u xizmat iti yordamida 3 nafar qidiruvdagi shaxsni ushlab, 2 ta giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatni fosh etdi.

– «Grom» men uchun juda qadrli. Agar kishi qalbida jonivorga nisbatan mehr bo'lmasa, hech qachon haqiqiy kinolog bo'lolmaydi. Bu kasb shu soha xodimidan sabr-toqat, mahorat, iroda va so'nmas mehr talab qiladi, – deydi serjant J. Boboyev. – Yaqinda «Grom» Urgut tumanida



yashovchi M.З.нинг uyida o'tkazilgan tintuvda yerto'ladagi yog'ochlar orasidan 29,13 gr Marihuana giyohvandlik moddasini topdi. Jinoiy holat dalili bilan fosh etilib, hujjatlar rasmiylashtirildi.

Javlonbek maxsus tayyorlangan maydonga «namuna qutilari»ni yashirdi. «Balu» har bir burchakni diqqat bilan hidlab chiqib, harakatini davom ettirdi. «Grom» esa qidirib borar ekan bir joyda to'xtab, o'tirib oldi. Bu – topdim, – degan ishora edi. Serjant Boboyev uni olqishladi.

Darvoqe, kinologlar jamoat xavfsizligining ko'zga ko'rinmas qahramonlari. Ular bir paytning o'zida ham o'qituvchi, ham sherik, ham himoyachi. Ularning xizmatida qo'rquv ham, xatar ham bor, ammo qalbida muhabbat va sadoqat, yengilmas matonat yashaydi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Insonparvarlik tamoyili

XATOLAR INSONNI YIQITISHI MUMKIN, AMMO...

Ism umr bo'yi insonga yo'ldosh bo'ladi. Shu bois har bir ota-ona bolasi chiroyli va ma'noli ism qo'yishga alohida e'tibor qaratadi. Ular ism farzandiga ruhiy kuch bag'ishlashiga, unda mas'uliyat va ishonchni mustahkamlashiga ishonishadi.

Poytaxtimizning Yashnobod tumani «Arg'in» mahallasida istiqomat qiluvchi Kozimjon ham oilasining to'ng'ichi, pahlavonday o'g'luga Muhammad Ali deb ism qo'ygani bejiz emas edi. U farzandi kelajakda mashhur bokschi Muhammad Ali kabi kuch-quvvatga to'la, sog'lom va jasur yigit bo'lishini niyat qilgandi.

Muhammad Ali tabiatan og'ir-bosiq, mulo hazali bola bo'lib ulg'aydi. Sportga qiziqsa-da, ammo ilm yo'lini tanladi. Nufuzli oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirib, talabalik baxtiga musharraf bo'ldi.

Biroq yoshlikning zavq-u shavqqa to'la kunlarining birida u do'stlari bilan gap tala shib qoldi. G'urur va his-tuyg'ular ustun ke lib, tortishuv hatto mushtlashishgacha bordi. Qiziqqonlikning oqibati esa juda og'ir bo'ldi...

Jinoyat ishlari bo'yicha Yashnobod tuman sudining 2024-yil 29-oktabrdagi hukmiga muvofiq, u 5 yil-u 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Shu tariqa umrining ayni bahori panjara ortida o'tadigan bo'ldi. Ammo Muhammad Ali tushkunlikka tushmadi, o'zini yo'qotmadi. Manzil-koloniya olib borilgan tushuntirish ishlari va psixologik treninglar natijasida xatolarini chuqur anglab yetdi hamda ulardan to'g'ri xulosa chiqardi. Ehtimol, shu sababli ham afv so'rab yo'llagan murojaati qanoatlantirilgandir.

— Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan Konstitutsiya kuni munosabati bilan qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga o'tgan 615 nafar afv etilgan mahkumlar orasida tumanimizda istiqomat qilib kelgan Muhammad Ali Soataliyevning ham borligi nafaqat uning oila a'zolarini, balki bizni ham

birdek quvontirdi, — deydi Yashnobod tumani IIOFMB Probatsiya bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Erpo'lat Moldatashov. — Sababi, biz bu oila a'zolarini yaxshi bilamiz. Ular hamisha odob-axloqli, mehnatsevar va jamoatchilik ishlarida faol bo'lgan. Muhammad Ali ham bolaligidan intizomli va mehnatsevar bo'lib o'sgan. To'g'ri, u xato qildi, adashdi, lekin xatolaridan to'g'ri xulosa chiqara oldi. Shu orqali o'zini qayta topdi, yangi hayotga qadam qo'ydi.

M. Soataliyevning o'talmay qolgan 3 yil-u 7 oy 11 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi shu muddatga ish haqining 15 foizini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirildi. Ayni paytda u Yashnobod tumani IIOFMB Probatsiya bo'limi ro'yxatida. «Arg'in» mahallasi faollari Zoid va Nodir Abdiyevlar unga jamoatchi mu-rabbiy sifatida birlashtirildi. Shuningdek, «Pebble Universal Service» MCHJga yo'llanma asosida ishga joylashtirish choralari ko'rilmoqda.

Bundan tashqari, Muhammad Ali tadbir-korlik faoliyatiga qiziqish bildirib, kelgusida o'z biznesini yo'lga qo'yish niyati borligini ma'lum qildi. Unga bu borada zaruriy yo'l-yo'riqlar berildi. Xususan, avvalo biznes-reja ishlab chiqib, tuman hokimi yordamchisiga taqdim etish, shundan so'ng subsidiya olish uchun ariza bilan murojaat qilish tartiblari batafsil tushuntirildi. Bu hikoya bir haqiqatni yana bir bor isbotlaydi: xatolar insonni yiqitishi mumkin, ammo to'g'ri xulosa va qo'llab-quvvatlash uning qaddini qayta tiklaydi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



▶ 2026-yil — Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili

KO'PNING KO'NGLIGA YO'L TOPIB

Yosh kelinchakning qahr-u g'azab bilan dardini doston qilayotgan onasi qo'shnisining «Qo'ying, qizingizga sovchi kelgan

paytlarda hali yosh, bir-ikki yil kutishsin, deganimizga parvo qilmagan o'zingiz-ku. Yaxshisi, qudangiz bilan murosas qiling. Farzandlar bebaxt bo'lib qolmasin» degan gaplariga quloq solgisi ham kelmasdi. Shukrki, keyinchalik ko'pni ko'rgan mahalla kayvonisi-yu xotin-qizlar faoli, rais-u profilaktika inspektori aralashib, oila asrab qolindi. Hozir qaynona ma'rakalarda kelinini og'zidan bol tomib maqtaydi...

Darhaqiqat, oilaviy ajralish-larning oldini olishda hamjihat-u hammaslahat ishlayotgan mahalla yettiligining o'rni katta bo'lyapti. Qorako'l tumanidagi «Darg'ali» mahalla fuqarolar yig'inida ham bu borada o'rnak bo'larli ishlar amalga oshirilyapti.

– Mahallamizda 1230 tadan ziyod oila bo'lsa, shularning salkam yarmi yosh oilalardir, – deydi profilaktika katta inspektori, mayor Abror Maqsudov. – Oilalarda hamjihatlikka erishish nafaqat endi turmush qurgan kelin-kuyovlar, balki xonadonda yashayotgan boshqa insonlarning munosabatiga ham bog'liq. Biz profilaktik ishlarni olib borishda ana shu jihatga alohida e'tibor beryapmiz.

O'tgan yil davomida 9 ta oilaviy mojarolar qo'llab-quvvatlash va yarashtirish komissiyasida ko'rib chiqilib, ijobiy hal etildi. Ajrimlar bo'lmadi. Ayni paytda 3 ta nizoli oila bor. Ular bilan ham mahalla yettiligi doimiy ravishda uchrashib, muammolariga yechim topib kelishmoqda.

Mayor Abror Maqsudov huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning har qanday ko'rinishiga qarshi

murosasiz kurashadi. Ma'muriy nazoratda turganlar, oila-turmush doirasida huquqbuzarliklar sodir etayotgan shaxslar, spirtli ichimlikka ruju qo'yganlar, profilaktik hisobda turuvchi voyaga yetmaganlar bilan tushuntirish ishlarini olib borishdan tashqari, mahalla ahlining huquqiy savodxonligini oshirish, yoshlar bilan qonun ustuvorligi, kiberxavfsizlikka qarshi kurashishga bag'ishlab tadbirlar o'tkazayotgani jinoyatchilikning oldini olishda asqatyapti.

– Mahallamizda yashovchi V.X. ismli shaxs ichkilikka ruju qo'ya boshladi. Har kech uyiga mast bo'lib kelar va janjal qilardi. Oxiri turmush o'rtog'i menga uchrashdi. Abrorjon bilan maslahatlashib, uni majburiy davolashga yubordik, – deydi mahalla raisi Murod Hamroyev.

– Mayor Abror Maqsudov jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash borasidagi ijobiy natijalari bilan boshqa hamkasblariga o'rnak bo'lib kelmoqda, – deydi tuman IIB boshlig'i o'rinbosari, mayor Erkin Qobilov.

Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlaridagi ilk faoliyatini 2013-yili Qorovulbozor tumani IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmatida boshlagan edi. Oradan to'rt yil o'tib, uni Qorako'l tumani IIB profilaktika xizmatiga o'tkazishdi. U tumandagi «Yangi turmush», «Qozon», «Alikaxo'ja» mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat yuritdi. Albatta, bu davrda yosh xodim izlanuvchanligi, kasbiy va jismoniy mahoratini oshirib borishi hamda namunal xizmati bilan rahbariyat nazariga tushgan edi. Mana, uch yildirki, u «Darg'ali» mahallasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Mayor A. Maqsudov shogirdi, katta leytenant Sherzod Usmonov bilan xizmat olib borayotgan «Shakarbek» mahallasida yashovchi O'. Xurshidaning hovlisida taqiqlangan 129 tup ko'knor o'simligini parvarish qilib kelayotganini hamda 140 gramm quritilgan ko'knor o'simligi borligini aniqladi. Shuningdek, u muqaddam bir necha marotaba o'g'rilik jinoyatini sodir qilgan Q. Otaxonni Buxoro shahrida yashirib yurgan manzilini aniqlab, uni ushlab keladi. So'ng 4-sonli IIB tergov hibsxonasiga joylashtiradi.

Bir so'z bilan aytganda, mayor A. Maqsudov el-tashvishini o'ylab, mahalla faollari bilan hamjihatlikda hududdagi osoyishtalikni ta'minlash yo'lida fidoyilik ko'rsatib xizmat qilmoqda. Uning xizmatidan esa aholi minnatdor.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



Mahallada tinchlik va osoyishtalikni saqlash, fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda lavhamiz qahramoni aynan mahalla fuqarolar yig'ini raisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi va yoshlar yetakchisi bilan birgalikda, bamaslahat ishlagani bois katta yutuqlarni qo'lga kiritmoqda.

Xavfsiz va sog'lom yurt

BUZOQNING YUGURGANI SOMONXONAGACHA

Chust tumanining «Dehqonobod» mahallasida yashovchi U.T. ismli shaxs Norin tumanida istiqomat qiluvchi T.F. ga 1 gektar yer maydonini sotishni taklif etdi va bu uchun 8500 AQSH dollari so'radi.

T.F. esa bu taklifni qabul qilib, U.T. ga avvaliga 5000 AQSH dollarini, keyinchalik qolgan pulni to'lashga kelishadi. Biroq bu firibgarlik rejasi amalga oshmadi. Namangan viloyati IIB xodimlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirlar davomida, T.F.dan pulni olish jarayonida U.T. qo'lga olindi.

Mamlakatimizda xavfsizlik masalasi bugungi kunda nafaqat davlat, balki jamiyatning ham eng ustuvor vazifa-

laridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholi o'rtasida jinoyatchilikni kamaytirish va jamiyatni salbiy omillardan himoya qilish uchun ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shu maqsad-da Namangan viloyatida «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli profilaktik tadbirlari doirasida muhim natijalarga erishildi. Xususan, To'raqo'rg'on, Mingbuloq, Chust va Davlatobod tumanlarida giyohvandlik moddalarini savdoga qo'ygan shaxslar ushlanib, ularga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atildi.



«Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli profilaktik tadbirlari nafaqat jinoyatchilikning barvaqt oldini olish, balki fuqarolarni huquqiy himoya qilishga qaratilgan muhim choralardir. Bu tadbirlarning samarali o'tkazilishi

viloyat aholisining jinoyatga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshiradi va jamoat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

Biz — korrupsiyaga qarshimiz!**BESH VOQEA — BESH VIJDON****yoki sahifaga aylangan hikoyalar****20 ming AQSH dollari jazoga yetakladi**

Urganch tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi katta tergovchisi, kapitan Azamat Sultonov uchun bu kun oddiy ish kuni edi. Stol ustida fuqaro A. Ashirovga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi. Og'ir modda, jiddiy qaror.

Shu ishni «yopish» maqsadida Qo'shko'pir tumanida yashovchi fuqaro J. Ahmedov xizmat xonasiga kirib keldi. Mehmon gapni uzoqqa cho'zmasdan shartta konvertni stolga qo'ydi. Ochish shart emas, 20 ming «ko'ki», biz rozimiz, dedi.

Tergovchi bu ishning jinoyat ekanini unga uzoq tushuntirgan, qayta-qayta rad etgan edi. Bu haqda rahbarlarini ogohlantirgan, shu gal ham tinch qo'ymasa, xabar qilaman, degan edi.

— «Hammamiz odammiz», — dedi mehmon.

Kapitan javob bermadi. Telefonni oldi. O'sha lahzada xonadagi jimlik birdan portladi. Tezkor xizmatlar xodimlari pora berish vaqtida ushlab, mehmonning qo'lga kishan urishdi. Holat rasmiylashtirilib, qonun ustuvorligi ta'minlandi. Pul dalilga aylandi. Qonun esa — jazo eshigini ochdi.

Ashyoviy dalil qo'shaloq bo'ldi

Xiva shahar IIB TQX jinoyat qidiruv guruhining katta tezkor vakili, katta leytenant Shuhrat Aminov kechki xizmatda edi. U «Xavfsiz va sog'lom yurt» tezkor profilaktik tadbirida fuqaro J. Matniyazovni geroin giyohvandlik moddasini 450 ming so'mga sotayotganda qo'lga oldi. Ashyoviy dalillar bilan ushlangan «sotuvchi»ning qo'llari titrar, ko'zlari umid izlardi.

— «Yordam bering, hozir 2 ming AQSH dollari beraman».

Taklif — jinoyatni yopishga emas, balki uni yanada og'irlashtirishga xizmat qildi. Pul qo'ldan qo'lga o'tmadi. Yana bir ashyoviy dalilga aylandi.

Qog'ozga o'ralgan geroin va qog'ozga o'ralmagan 2 ming dollar. Og'irligi yengil, ammo minglab yoshlarni zaharlashga qodir og'uni egasi bilan birga sudga olib ketishdi.

**Sharafini saqlab qoldi**

Viloyat IIB M va FRB MTB inspektori, mayor Umidbek Yusupov maxsus tadbir davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha to'plangan hujjatlarni ko'zdan kechirar edi. Eshik taqilladi. Fuqaro A. Vaisov ushbu tadbir doirasida Turkmaniston Respublikasi fuqarolariga nisbatan qonuniy chora ko'rish masalasidan foydalanib qolmoqchi bo'lib unga ming AQSH dollari pora taklif qildi.

— Ming dollar. Masala yopiladi. Mayor bir zum ham o'ylamadi. Chunki ba'zi qarorlar o'ylab qabul qilinmaydi — ular qalbdan chiqadi. Kechga borib, xizmat xonasida pul daliliy ashyoga aylandi. Kimdir pul yo'qotdi. Kimdir sharafni saqlab qoldi.

Inspektor qaysar chiqdi

Yo'l. Soat 09:45. Viloyat IIB JXX YHXB YPX batalyoni birinchi safarbar guruhi YPX inspektori, safdor G'anijon Abdullayev «Cobalt» avtomashinasini to'xtatdi. Spirt hidi. Alkotester. Hammasi aniq. Bayonnoma yozilayotgan paytda haydovchi qog'ozni yirtib tashladi.

Kapot ustiga 3 million so'm pul qo'yildi. O'yladiki, masala joyida hal bo'ladi.

Inspektor qaysar chiqdi. Bu pul yo'lni ochmadi. Aksincha, uni butunlay yopdi. Qo'llar kishanlandi.

Hujjatlar yo'qolmadi

Viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi tergovchisi, kapitan Navro'zbek Sa'dullayevning ish yurituvdagi jinoyat ishi bo'yicha ayrim shaxslar «yengil yo'l» izladi. Gaplar ehtiyotkorlik bilan boshlanib, asta-sekin asosiy taklifga ulandi. Qonunni chetlab o'tish, hujjatlarni «yo'qotish», ishni cho'zmasdan tugatish... Taklif esa aniq edi — pora.

Kapitan Sadullayev bir lahzada ham ikkillanmadi. U uchun bu qaror ishdagi oddiy epizod emas, balki vijdon oldidagi imtihon edi. Darhol tegishli xizmatlarga xabar berildi. Tezkor tadbir natijasida pora berishga urinish fosh etildi. Qonunga xiyonat qilinmadi.

Ushbu hikoyalar gazetada oddiy maqola bo'lar, ammo «qahramonlar»ning bu ishi ular hayotida muhim sahifa bo'lib qolishiga shak-shubha yo'q.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Chekka hududlarda**BIZ UCHUN MUHIM DRAYVER**

Oqoltin tumanida keyingi yillarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasida ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, hududni kesib o'tgan Toshkent — Samarqand avtomagistrali bo'yidagi xizmat ko'rsatish joylari, savdo shoxobchalariga zamonaviy videokuzatuv moslamalari o'rnatildi. Natijada ushbu obyektlarda o'g'riliklar soni kamaydi.

Qariyb 55 ming aholiga ega tumanda bugungi kunda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlashga barcha birdek bosh qo'shgan. Buni yaqinda tuman hokimligida bo'lib o'tgan jinoyatchilikka qarshi kurashishga bag'ishlangan yig'ilish misolida ham ko'rish mumkin. Profilaktika inspektorlari qatnashgan tadbirida har bir mahalla kesimida jinoyatchilik ahvoli tahlil etilib, «qizil» toifadagi mahallalarda mavjud vaziyat, sodir etilgan jinoyatlarning kelib chiqish sabablari muhokama qilindi. O'z navbatida, mahallalarda videokuzatuv kameralari sonini oshirish, «xonadonbay» ishlashni yanada yaxshilash choralari belgilab olindi. Profilaktika inspektorlarining moddiy-texnik ta'minoti masalalari ham ko'rib chiqildi.

... Navoiy mahallasi tumanning markaziy hududida joylashgan.



Qariyb uch mingdan ortiq aholi istiqomat qiladigan mahallada yosh leytenant Asilbek Temirov profilaktika inspektori vazifasida faoliyat ko'rsatadi. U qisqa vaqt

ichida mahallada jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha bir qator ibratli ishlarni amalga oshirishga ulgurdi. Chunonchi, xavf guruhiga kiruvchi shaxslarning ijtimoiy profilaktikasi

bo'yicha ko'plab tashabbuslarni ilgari surdi. Ularning bir qanchasini ishga joylashtirdi, ayrimlariga subsidiya asosida tadbirkorlik uchun anjomlar berilishiga erishdi. Shuningdek, mahalladagi yoshlar bilan ishlash darajasi ortdi.

Yaqinda mahallada profilaktika inspektorlari, tuman boshqaruv organlari mas'ul xodimlari ishtirokida o'quv-seminar tashkil etildi. Tadbirida mahallada huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlar namuna sifatida ko'rsatildi.

— Huquqbuzarliklar profilaktikasi davra suhbatlari bilan cheklanib qolishi mumkin emas, — deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Husan Bekmurodov. — Uning qamrovi ijtimoiy ko'mak, sport, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bilan yanada kengaytirilsa, kutilgan natijaga erishish mumkin.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

Bugungi kunda barchamiz – qaysi soha yoki tarmoqda, qanday lavozimda ishlamaylik, Vatan himoyachisi bo'lishimiz zarur. Bu talabni davrning o'zi oldimizga qat'iy vazifa qilib qo'yimoqda va xalqimiz ham bizdan aynan shuni kutmoqda.

Shavkat MIRZIYOYEV

XXI asrda dunyoda bo'lib o'tayotgan shiddatli jarayon, xususan, yangi noan'anaviy ziddiyatlar, to'qnashuvlar va tahdidlar paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan o'zgarishlar bir qutbli tizimdan ko'p qutbli dunyoviy tartibotga o'tish davri bilan bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, davlatlarning harbiy siyosati xalqaro munosabatlarning oldingi safiga chiqib, xavfsizlik, mudofaa va umuman olganda, tinchlik o'rnatishni ta'minlash borasidagi siyosatni puxta o'ylangan holda qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

KONSEPTUAL DASTUR ASOSIDA

Shu bois «O'zbekiston – 2030» strategiyasining «Xavfsiz va tinchliksevar davlat» tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo'nalishi doirasida amalga oshiriladigan muhim maqsad va vazifalarda mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, Qurolli Kuchlar qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Yangi O'zbekiston mudofaa tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim vazifalar, oldinda turgan dolzarb masalalar, zamonaviy tahdidlar xususiyatidan kelib chiqib, 2022–2026-yillarda Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan konseptual dastur asosida amalga oshirilmoqda. Dastur ijrosi bo'yicha barcha qo'shin turlari zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi uzluksiz oshib bormoqda. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maktablarda boshlang'ich harbiy ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilayotgani tufayli milliy armiyamiz yoshlarimiz uchun chinakam mardlik va shon-sharaf maktabiga aylanmoqda.

BARKAMOLLIK TAMAL TOSHI

Yangi O'zbekistonning Qurolli Kuchlari yaqin o'tmishdagi armiyadan keskin farq qiladi. Mavjud yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlar har bir yoshning ruhiy matonatinini chiniqtiradi, irodasini sinovdan o'tkazadi. Shaxsiy intizomini

mustahkamlab, mas'uliyatini yuksaltiradi. Jismoniy, ma'naviy va ruhiy jihatdan tarbiyalab, muvaffaqiyatga erishish sirlarini o'rgatadi. Yetakchilik mahoratini, yon-atrofdagilarni boshqarish san'ati va qobiliyatini shakllantiradi. Liderlik sari undaydi. Imkoniyatlar eshigini ochadi. Kelajakda har tomonlama yetuk va barkamol inson bo'lishga tamal toshini qo'yadi. Albatta, bunga intiluvchan yoshlarning o'z taqdirini harbiy soha bilan bog'lashi uchun mamlakatimizda yetarli-shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, ta'lim muassasalarida CHQBT fani nufuzini yanada oshirish, shuningdek, ushbu fan o'qituvchilarining faoliyatini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilyapti.

Ikkinchidan, Qurolli Kuchlar salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan tub islohotlar davrida ilg'or xorijiy tajribalar asosida yuqori professional va intellektual jihatdan yetuk, yuksak vatanparvarlik xislatlari va jangovar ruhga ega bo'lgan, yuragida o'ti bor, halol va fidoyi, Vatanga sodiq kadrlarni tanlashning shaffof tizimi yo'lga qo'yilgan.

REKRUTING – SHAFFOFLIK KAFOLATI

Rekruting – tanlov jarayonidagi yangi tanlov amaliyoti bo'lib, u kadrlar tanlovida shaffoflikni kafolatlaydi. Nomzodlar arizalarining Mudofaa vazirligi maxsus Rekruting platformasi orqali qabul qilinishi saralash jarayonida o'ziga xos yangilik bo'ldi. Yangi elektron tizim inson omili va ta'sirini kamaytirish, ma'lumotlar oshkoraligi, xolis baholashni ta'minlash maqsadida joriy etilgan.

Platforma orqali ariza topshirishning yo'lga qo'yilishi qo'shinlarda xizmat qilayotgan har bir yigit uchun teng imkoniyat yaratdi. Eng muhimi, bu kadrlarni tanlashning raqamli yo'nalishga o'tilayotganidan, halollik, shaffoflik va adolat mezonlariga tayanilgan holda, yangi amaliyot shakllanayotganidan dalolat beradi.

IKKI BUYUK TAYANCH

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, harbiy jangovar va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchidir. Shu ma'noda kuchli davlat bu faqatgina zamonaviy armiya emas, balki yuksak ma'naviyatli, bilimli va mas'uliyatli jamiyatdir. Demak, har bir yoshning ilm olishi, kasb egallashi, innovatsiyalarga intilishi va Vatan ravnaqi yo'lida o'z salohiyatini to'liq safarbar etishi mamlakat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotning to'liq kafolatidir.


Zero, zamonaviy Vatan himoyachisi bu nafaqat jismonan baquvvat, balki ma'nadan yetuk, dunyoqarashi keng, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, ilg'or fikrlaydigan shaxsdir. U axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan, kibertahdidlarga qarshi turaladigan, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatiga ega bo'lsagina jangovar va ma'naviy salohiyatli harbiy hisoblanadi.

BUGUN QUROL EMAS, BILIM QALQON

Bugungi kunda Vatan himoyachisi yo'lida ilm, intizom va innovatsiyalar amaliyoti jihatidan quroldan kam emas. Hatto bu haqda o'z vaqtida Husayin Voiz Koshifiy «Futuvvatnomai sultoniy» asarida shunday deydi: «Agar sendan kurash tushish ilmimi yoki amalmi, deb so'rasalar, javob berib aytginki, kurash amal bilan zich bo'lgan ilmdir». Qolaversa, bugun Vatan himoyasi uchun kurash ilmga, tafakkurga ko'chganini yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqealar, davlatlararo bo'layotgan o'zaro harbiy to'qnashuvlar yaqqol ko'rsatib turibdi.

Shu bois Mudofaa vazirligi tasarrufidagi barcha ta'lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash dasturlari qayta ko'rib chiqildi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy san'at rivojida asosiy tendensiyalarni aks ettiradigan mutaxassisliklarni jangovar harakatlarni olib borishning xorijiy tajribasi, zamonaviy shakl va metodikasini hisobga olgan holda o'rgatish ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. Buni tizimda erishilayotgan natijalarda, ya'ni Mudofaa vazirligining mutaxassislari turli xalqaro harbiy musobaqalarda faol qatnashib, faxrli o'rinlarni zabt etishayotganida ko'rishimiz mumkin.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.



Qoraqalpog'
tilidagi matn.



Rus tilidagi
matn.



Скажу от чистого сердца

ГОРЖУСЬ ПРОФЕССИЕЙ

С юных лет мечтала служить в системе органов внутренних дел. Когда видела людей в военной форме, восхищение возрастало. Насколько эта сфера трудна и ответственна, я по-настоящему осознала лишь после того, как начала службу.

После окончания Бухарского государственного университета проработала один год преподавателем. С 2019 года я в системе органов внутренних дел. В настоящее время служу старшим инспектором-психологом по делам несовершеннолетних отдела профилактики правонарушений СОБ ОВД Ромитанского района. У меня двое детей. Супруг, Турсунали Атоев, работает мастером в пункте технического обслуживания автомобилей. Он всегда помогает и поддерживает меня.

За мной закреплены 5 махаллей, 4 школы и техникум. Регулярно провожу мероприятия, контролирую посещаемость и соблюдение учащимися правил поведения и нравственности, провожу индивидуальные беседы, а также групповые психологические тренинги. Каждый день получаю данные о посещаемости из образовательных учреждений и совместно с



«махаллинской семеркой» посещаю дома учащихся, чтобы выяснить причины отсутствия. Если возникают проблемы, стараемся решить их на месте. С целью предупреждения преступности и правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи, недопущения их безнадзорности и бесконтрольности на постоянной основе провожу профилактические мероприятия и разъяснительно-пропагандистскую работу.

Прошедший 2025 год стал для меня богатым на достижения. Я стала победителем областного этапа смотра-конкурса «Лучший психолог». Также стала студенткой магистратуры Бухарского международного университета.

Сафия АСЛОНОВА,
капитан.

Бухарская область.

Преданный своему делу

Олимжон Исаков родился в 1982 году в бывшем Мехнат-абадском районе Сырдарьинской области. Детство прошло в сельской местности. Стремление к осуществлению мечты привело его в Гулистанский государственный университет. Целеустремленный юноша поступил в вуз с первой попытки и в 2003 году успешно окончил экономический факультет. Впоследствии он работал в финансово-экономических подразделениях различных государственных органов.

В 2011 году О. Исаков был принят на службу на должность контролера отдела охраны. Ответственный по натуре, он с первых дней проявил себя как дисциплинированный сотрудник. Там, где он нес службу, всегда царили порядок и спокойствие.

Уже в следующем году его перевели на должность бухгалтера учреждения. Объем работы значительно увеличился. В финансовых вопросах ошибка недопустима. Работа требовала

предельной точности. Олимжон справлялся с возложенными обязанностями на высоком уровне, что не осталось без внимания руководства. Спустя несколько лет его назначение на должность главного бухгалтера стало закономерным подтверждением доверия.

Работая с удвоенной ответственностью, капитан Исаков осуществляет сложные финансовые расчеты. Именно поэтому бухгалтерские ошибки здесь редкость. Он выступил инициатором предоставления ряду сотрудников субсидий на приобретение жилья, а также беспроцентных займов для укрепления их семейного положения.

Следственный изолятор можно сравнить с крупным хозяйственным объектом: финансирование расходов на электро-

Отголоски праздника

ДАРИ НАДЕЖДУ И ДОБРО

Каждый ребенок ждет чуда. Особенно важно, чтобы оно постучалось к тем, кому сейчас непросто.

В Республиканской детской психоневрологической больнице им. У. Курбанова, расположенной в Мирзо-Улугбекском районе столицы, прошел праздник: курсанты Академии МВД подарили новогоднюю сказку маленьким пациентам.

Больничный зал преобразился, наполнившись музыкой, искренним смехом и атмосферой волшебства – той самой, в которой тает любая грусть. Дед Мороз и сказочные герои увлекли ребят в мир чудес, подарив им возможность хотя бы ненадолго забыть о болезнях. Каждый ребенок получил подарок, а главное – веру в то, что он не одинок.

Мероприятие в очередной раз напомнило простую истину: сила доброты и внимания спо-



собна зажигать свет надежды. Пусть улыбки, озарившие лица мальчишек и девчонок, станут началом пути к выздоровлению и обретению здоровья.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.



НЕ ОШИБАЯСЬ В РАСЧЕТАХ

Главного бухгалтера 8-го следственного изолятора 3-го регионального управления капитана Олимжона Исакова хорошо знают все. Благодаря высоким человеческим качествам он заслужил искреннее уважение коллектива.



никало серьезной проблемы. Напротив, платежи и финансовые обороты осуществляются стабильно. Однако далеко не все знают, что за этим стоит кропотливый труд. Скромный по натуре капитан не любит говорить об этом.

Олимжон Исаков – семьянин. Вместе с супругой они воспитывают пятерых детей. Их старшая дочь поступила в УзГУМЯ на грантовой основе. Не это ли свидетельство мудрого и внимательного отношения родителей к будущему своих детей, подтверждающее, что вопросы их образования и духовного становления – на первом месте.


Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.

Мулоҳаза

«FAKE»
ХАБАРЛАР ТАҲДИДИ

XXI асрдаги энг қудратли қуроллардан бири ахборотдир. Рақамли технологиялар ривожланган даврда маълумотлар дунёнинг у чеккасида бу бурчагига оний лаҳзаларда тарқалади. Аммо агар у ёлғон хабар бўлса, хавф-хатар ҳам келтириб чиқариши муқаррар.



Ўзбекистон ҳам бу жараён-дан мустасно эмас – ижтимоий тармоқлардаги айрим воқеалар фикримизга яққол мисол бўла олади.

2024 йилнинг ёзида Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз туманида жойлашган «Ҳисорак» сув омборида қўшимча туннель очиш мақсадида олиб борилаётган муҳандислик-техник тадбирлари вақтида сув сизиб чиқиши кузатилганди. Воқеа содир бўлган пайтда сув омбори ҳақида интернет ижтимоий тармоғида баъзи фуқаролар ёлғон ахборот тарқатиб, одамларнинг ваҳима солиб, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонун билан қўриқладиган манфаатларига зарар етказилишига сабабчи бўлган. Шундан сўнг мазкур ҳолат бўйича Шаҳрисабз туманида яшовчи Д. У., Н. А. ва бошқаларга нисбатан жиноят иши қўзғатилиб, тергов ҳаракатлари олиб борилган. Мазкур иш жиноят ишлари бўйича Шаҳрисабз туман судида кўриб чиқилган ва ваҳима кўтарган шахсларга суд ҳукми ўқилган.

Одамлар ҳақиқий ва сохта маълумотни фарқлай олмаган тақдирда, уларда оммавий ахборот воситаларига нисбатан шубҳа ва ишончсизлик пайдо бўлади. Нотўғри ёки сохта маълумотлар айрим ҳолларда одамларга моддий, маънавий,



ҳатто соғлиғига ҳам зарар етказиши мумкин. Масалан, «соғлом турмуш тарзи» ниқоби остида ҳар хил дори-дармонларни реклама қилиб, тарқатилаётган ёлғон тавсиялар кўплаб одамлар саломатлигига салбий таъсир кўрсатаётган ҳолатлар мавжуд.

Сохта контент ва «лайк» кўпайтиришга асосланган шов-шув ёшларимиз онгига кучли таъсир кўрсатмоқда. Улар орасида ташқи кўриниш ва машҳурликка интилиш кучаймоқда. Бу эса жамиятда маънавий қадриятлардан узоқлашиш, юзакилик ва манфаатпарастликнинг ортишига олиб келиши мумкин. Шунинг учун ҳам ҳар бир инсон ахборотни қабул қилишда танқидий фикрлаш, манбани ишончлиги-

ни текшириш ва расмий маълумотни танлаб олиш маданиятини шакллантириши зарур.

Фейк ахборот кўпинча жамоат тартибини бузиш, одамларда қўрқув ёки ваҳима уйғотиш воситасига айланмоқда. Шу сабабли, мамлакатимизда бу соҳада назоратни кучайтириш чораларини кўрмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Рақамли технологиялар воситасида содир этиладиган жиноятларга қарши курашиш соҳаси учун профессионал кадрлар тайёрлаш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори фикримиз тасдиғидир.

Қарорда мазкур соҳада фаолият юритувчи ходимларни

ҳомийликни очиқ белгилаш, сохта сенсация яратганлик учун жавобгарликни янада кучайтириш даврнинг долзарб масаласидир. Қонуний асосларни такомиллаштириш орқали фейк ахборот тарқатган шахсларга нисбатан аниқ жавобгарлик чегараларини белгилаш, бироқ буни сўз эркинлиги ва инсон ҳуқуқлари билан уйғун ҳолда амалга ошириш керак бўлади. Жамиятда фактчек, яъни маълумотни аниқ, ишончли ва манбалари орқали текшириш маданиятини шакллантириш лозим. Бу эса, биринчи навбатда, фейк ахборотнинг олдини олишга хизмат қилади.

Фейк ахборот ва сохта инфлюэнсерлар фақат ахборот соҳасидаги эмас, балки маънавиятга ҳам таҳдид. Улар жамиятда ишончли сўндириб, ҳақиқат билан ёлғон орасидаги чегарани йўқотади. Агар ҳар бир фуқаро маълумотни олиш ва тарқатишда масъулиятли бўлса, журналистлар ва блогерлар ахлоқ қоидаларига риоя

SIZGA QANCHA
KERAKLIGINI TANLANG

Olasiz	Qaytarasiz
2.000.000 so'm	→ 2.100.000 so'm
4.000.000 so'm	→ 4.200.000 so'm
8.000.000 so'm	→ 8.400.000 so'm
15.000.000 so'm	→ 15.700.000 so'm

QARZ OLISH

қилса, қонуний назорат самарали амалга оширилса, фейк ахборот таъсири камайтириш мумкин бўлади.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.



Qaror va ijro

UYI BORNING O'YI YO'Q

Yangi O'zbekiston-da o'tgan 2025-yilda o'z uyiga ega bo'lgan kishilarning kayfiyati, quvonchi boshqacha. Shunday xushkayfiyatdagi kishilar orasida davlatimizning ichki ishlar organlari xodimlariga bo'lgan e'tibori va g'amxo'rlikidan be-had minnatdor bo'lgan xodimlar ham talaygina.

Samarqand shahar IIOFMB huzuridagi Ter-gov bo'limi tergovchisi, kapitan Muhriddin Nor-po'latov turmush o'rtog'i, Samarqand shahar IIOFMB 6-son IIB Kanselyariya kat-ta ish yurituvchisi, safdor Nodirabegim Abdusa-lomovalar aynan shular sirasiga kiradi. Axir ular



yillar davomida ijarada ya-shab, u uydan boshqasiga ko'chib sarsongarchilikda yashashar edi. 2025-yil bu oila uchun omadli yil bo'ldi. Ular ham ko'pchilik

hamkasblari qatori o'z uyiga ega bo'lishdi.

Uy insonning xotirjamlik manbayi, shaxsiy istak va orzulari ro'yobga chiqa-digan maskan. Shu bois,

bunday quvonchli lahzalar kishiga nafaqat shodlik va shukronalik hadya qiladi, balki inson qalbida bir umr-ga muhrlanib qoladi.

– Ichki ishlar organlari-da xizmat qilishning o'zi-ga xos mashaqqati bor. Navbatchilikda tunlar be-dor o'tadi. Bayram kun-lari ham ishda bo'lamiz. Mas'uliyat doimo yelka-mizda. Shu yillar davomida bir orzum bor edi. Farzand-larim emin-erkin, yayrab ulg'ayishlari uchun xotirjam yashaydigan maskanga ega bo'lsam degan. O'tgan yil-da orzum haqiqatga aylan-di, – deydi kapitan M.Nor-po'latov.

Bu oilaning quvonchli lahzalari albatta. Vatanga sadoqatli xizmati va ma-shaqqatli mehnatlarining samarasi. Bir-birini qadrlab,

oilaviy baxtni his qilib ya-shashining hosilasi. Har bir oilada o'zaro bir-birini tushunish, bir maqsadga intilish bo'lsa, maqsadlar asta-sekin ro'yobga chiqa-veradi.

– Insonning o'z uyiga ega bo'lishi cheksiz baxt. Biz turmush o'rtog'im bilan bu baxtni kutib yashadik. Yangi uy baxt qo'rg'oni-mizga aylandi. Bolalarimiz yangi uyda, o'z xonalarida sho'x-shodon katta bo'li-shadi. 2025-yilda ana shu orzumiz ushaldi. Ayniqsa, dastlabki to'lovning foizi Ichki ishlar vazirligi tomoni-dan to'lab berilganidan juda minnatdorman, – deydi saf-dor N. Abdusalomova.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz,

Samarqand viloyati.

Yangi O'zbekiston – yangi ichki ishlar organlari



Qashqadaryo viloyati

Yangi yil bayrami arafasida Shahrizabz shahar IIB binosi kapital ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda viloyat hokimligi hamda viloyat IIB rahbariyati, faxriylar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar mamlakatimiz-da Prezidentimiz rahnamoligida ichki ishlar organlarini xalqchil professio-nal tuzilmaga aylantirish va aholi bilan hamkorligini mustahkamlash yo'lida amalga oshirilgan ishlar natijasida tizim

fuqarolarning ishonchli himoya-chisi sifatida shakl-langanini qayd etishdi.

Zamonaviy qiyo-fa kasb etgan bino-da har bir sohaviy xizmat xodimlari uchun barcha qulayliklarga ega shinam xizmat xo-nalari, navbatchilik qismi, oshxona, ku-

tubxona, «Vatan-parvarlik burchagi», «Ma'naviyat va ma'rifat xonasi» va qishki sport zali mavjud. Shuning-dek, zamonaviy workout, mini futbol va voleybol maydonchalari xodimlar ixtiyoriga topshirildi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.



► January 14 – Defenders of the Fatherland Day

A SYMBOL OF COURAGE AND INDEPENDENCE



January 14 is one of the most significant national holidays in the history of Uzbekistan – Defenders of the Fatherland Day. This date was chosen with profound purpose: it marks the historic day in 1992 when the Armed Forces of independent Uzbekistan were officially established. Today, this holiday holds deep meaning not only for military personnel but for all citizens of the country.

Defenders of the Fatherland Day serves as a powerful symbol of the nation's freedom, the people's peace, and the sovereignty of the state. It reminds us that peace is an invaluable asset, and safeguarding it is the sacred duty of every citizen.

Our national army serves to strengthen the feelings of patriotism, national pride, and loyalty to the state in the hearts of the younger generation. After all, defending the Motherland is the most noble and honorable duty.

► «Open Doors Day»

A DAY WITH MY PARENTS

An «Open Doors Day» was held in high spirits at the Guard Division under the Navoi Regional Internal Affairs Department as part of the «A Day with my parents» project. During the event, employees introduced their children to the responsibilities of their profession, the daily workflow, and the honorable tasks involved in ensuring national security. Each child experienced unique excitement and immense joy while gaining a firsthand look into their parents' professional lives. Such initiatives play an invaluable role in raising our children – the hope of our future – as physically healthy, spiritually mature, broad-minded, and true patriots. This day further strengthened the feelings of loyalty to the Motherland and an admiration for military service in the hearts of the younger generation.



► A sanctuary of happiness



Our dream came true

The year 2025 proved to be unforgettable for captain Muhridin Norpulatov and private Nodirabegim Abdusalomova, both employees of the Samarkand City Internal Affairs Organizations Coordination Department. After years of living in rental housing, this dedicated couple acquired their own home thanks to the state's welfare initiatives.

To support internal affairs personnel, the Ministry of Internal Affairs covered the initial down payment for the property.

– This has been our long-held dream: now our children will grow up in our very own home, – said captain Norpulatov.

This act of recognition serves as a high incentive and a foundation for family happiness for those dedicated to preserving the peace of the Motherland.

► The memory of the sacred Supporting our heroes' families

Honoring the memory of internal affairs officers who perished in the line of duty and providing comprehensive care for their families remains an integral part of state policy and a constant priority. The leadership regularly visits these households to provide moral support and ensure the swift resolution of any emerging issues through systematic meetings. As part of state-sponsored social support measures, family members are provided with privileged vouchers to sanatoriums and rest areas, while their children are guaranteed special benefits and quotas for admission to higher education institutions to ensure a quality education. The families of the brave sons who sacrificed their lives for the peace of the Motherland and the tranquility of the people will never be left without attention; their social and material well-being remains under the permanent protection of the state, and these care initiatives are carried out consistently.



Key highlights from President Shavkat Mirziyoyev's address to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan:

Next year, in Tashkent city, Bukhara, Fergana and Tashkent regions, four data centers, two supercomputers, and artificial



intelligence laboratories in 15 universities will be established. This will enable the implementation of more than 100 AI projects in key areas such as healthcare, transport, agriculture, geology, banking and finance, and public safety.

* * *

This year, foreign investment attracted into the economy



reached \$43.1 billion, with the share of total investment in GDP at 31.9 percent. This provides a foundation for sustainable high economic growth in the coming years.

* * *

In 2026, 5 trillion soums in loans will be allocated to launch over 10 thousand production and service projects. Up to 10 percent of the interest on loans in the national



currency and up to 4 percent in foreign currency will be covered by the Company for entrepreneurship development. From the budget, 400 billion soums will be allocated for these purposes. As a result, 100 thousand new jobs will be created in the mahallas.

* * *

We also have ambitious plans to increase the inflow of investments into our country. A new system will be established, focused exclusively on investments, responsible for turning every deal into a project, attracting investments quickly, and ensuring their efficiency.



Фахрийлар — фахримиз

САДОҚАТ-ЛА СИНАЛГАН ЙЎЛ

Истеъфодаги подполковник Феруза Қаюмова 22 йиллик хизмат фаолияти мобайнида зиммасидаги вазифаларга масъулияти, касбга садоқати билан эғнидаги либосига асло доғ туширмаган ва ҳамкасбларининг ҳурматиға сазовор бўлган фидойи аёллардан бири. У хизмат фаолиятининг салмоқли қисмини жазони ижро этиш муассасаларида олиб борган.



Кейинчалик у Ко-нимех тумани ИИБда хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектор лавозимида хизмат олиб борди. Бу йўналишда нафақат ҳужжатлар билан, балки инсонлар тақдири билан ишлади. Оилавий муаммоларни ҳал қилишда, тазйиқ ва зўравонлик остида қолган аёллар билан мулоқот қилишда меҳр, қатъият ва ишончни бирдек намоён эта олди. Кўплаб мурожаатларга ечим топиб, неча тақдирларни ижобий томонга ўзгартирди.

Айтганча, Феруза Қаюмова олий таълим муассасасини яқунлаган кезларида бир муддат педагогик фаолияти билан ҳам шуғулланган. Таълим тизимида сўз билан таъсир қилиш, тушунтириш ва тарбиялаш борасида орттирган тажрибаси ички ишлар органларидаги хизмат жараёнида унинг муҳим устунликларидан бирига айланди десак, муболаға бўлмайди.

– Конимех туманида хизмат олиб бораётган вақтимда бир ёш оиланинг тақдири мени қаттиқ ташвишлантирган, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Аслида бир маҳаллалик йигит-қиз севишиб турмуш қуришган. Бироқ иккинчи фарзанди туғилгач,

аёл эрининг топганига қаноат қилмай, тез-тез жанжал чиқарадиган бўлган. Кунларнинг бирида арзимаган нарсига эри билан тортишиб, икки боласини олганича ота-онасининг уйига кетиб қолган. Бундан хабар топгач, уларни яраштиришга киришдик. Қайсар аёл эса ҳеч унамади. Шунда кўп йиллик фаолиятим давомида кўрган-кечирганларимни, инсонлар тақдирини бирин-кетин айтиб бердим. Унга турмуш ўртоғи фақат оиласи, рўзғори учун ҳаракат қилаётганини, сабр ва қаноатли бўлиш бахт олиб келишини тушунтирдим. Гапларимни тинглаган аёл қаршимда анча вақт бошини эгиб, мулоҳазага чўмди. Кейинчалик ўз қилмишидан афсусланиб, кечирим сўраб, оиласига қайтди. Ҳозиргача у билан қадрдон опа-сингилмиз. Телефон орқали суҳбатлашиб, кези келганида ҳуқуқий масалаларда маслаҳатлар бераман.

Бугун Феруза Қаюмованинг шарафли йўлини унинг ўғли – лейтенант Азиз Қаюмов давом эттирмоқда. Лавҳамиз қаҳрамони жонкуяр она, ўз ўрнида фахрий ходим сифатида соҳага оид билимларини фарзандидан аямайди. Зарур вақтда маслаҳат бериб, йўл-йўриқ кўрсатади.

Фидойи ходима айна пайтда пенсияда бўлса-да, изланишдан тўхтагани йўқ. Бўш вақтида тикиш-бичиш билан шуғулланади. Ўз қўли билан тиккан ҳар бир буюмга меҳр қўшади. Бу машғулоти уни руҳан тинчлантиради, сабр ва нафосатни уйғунлаштириб, янгидан-янги ижод қилишга ундайди.

Маҳлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Навоий вилояти.

Kasb fidoyisi

PATRULNING SINCHKOV NIGOH

Ички ишлар органларидаги ҳар бир соҳавий хизматнинг о'зига хос нозик jihatlari bor. Masalan, jamoat joyida xizmat olib boradigan patrullar juda sinchkov va hushyor bo'lishi kerak. Bu omma orasida yurgan har qanday shubhali shaxsni aniqlash va ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishda juda muhimdir.

Farg'ona viloyati IIB 1-mintaqaviy hudud PPX saf bo'linmalari PPX otryadi 4-guruh inspektori, safdor Haydarali Toshboltayev ham ana shunday sinchkov nigohlar sohibi sanaladi. Bu xislatlar xizmat jarayonida unga doim asqatib kelgan.

Yaqinda Farg'ona shahridagi Yuksalish ko'chasida xizmat olib borayotgan vaqtda omma orasida shubhali tarzda harakatlanayotgan shaxslardan birini payqab qoldi. Keyin u to'xtatilib, planshet yordamida shaxsiga oydinlik kiritildi. Fuqaro bejiz bezovtalanib, xodimlardan o'zini olib qochmagan ekan. Toshkentlik ushbu shaxs muqaddam jinoyat sodir etib, tergov organlaridan yashirinib yurganligi ma'lum bo'ldi va joyida ushladi.

Lavhamiz qahramoni bu kasbni bejiz tanlamagan. Dadasi, iste'fodagi mayor Habibullo Toshboltayev 30 yilga yaqin ichki ishlar organlarida faoliyat yuritgan. Xususan, Oltiariq, Rishton tumani qo'riqlash bo'linmalarining boshlig'i vazifasida xizmat qilib, ustoz sifatida ko'plab shogirdlar tarbiyalagan. Shuningdek, amakisi, katta serjant Hikmatillo Toshboltayev ham konvoy xizmatida faoliyat olib borib, pensiyaga chiqqan.

Haydarali xizmat jarayonida doim ota o'g'itlariga amal qiladi. Shu bilan birga, jamoat tartibini saqlash yo'nalishida o'z tajribalarini o'rgatib, haqiqiy patrullarga xos xislatlarni shakllantirgan ustozlari safdor Ahrorjon Tojiqulov, serjant Rasuljon Jumayevlardan ham shogird sifatida doim minnatdor bo'ladi.

– Ota kasbini tanlab sira kam bo'lga-nim yo'q, – deydi lavhamiz qahramoni. – Chunki soha xodimlari doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Masalan, 2024-yilda menga ham uy-joy sotib olish uchun 25 foizlik dastlabki badal puli evaziga kichik vatanimga, yangi xonadonimga ega bo'ldim. Hozirda shu uyda turmush o'rto'g'im va 3 nafar farzandim bilan baxtli yashab kelyapman. Qolaversa, el-yurt tinchligi yo'lida qilayotgan xizmatlarimiz doimiy tarzda mod-



diy va ma'naviy rag'batlantirib borilyapti. Bunday e'tibor va g'amxo'rlikka javoban Vatanga muhabbat va kasbga sadoqat ruhida xizmat qilishdan aslo charchamayman.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni

ODAMLAR XOTIRJAM YASHASIN DEB

Vatanni himoya qilish tor kasb emas, balki keng axloqiy mezondir. Bugungi kunda Vatanni chegara-yu darhadlarda, soqchilig-u patrul xizmatida, armiya bo'linmalari va jamoat xavfsizligini ta'minlovchi bo'linmalarda himoya qilishmoqda. Bir so'z bilan aytganda, Vatan himoyasi, avvalo, inson va uning qadr-qimmatini himoya qilishdir.

Vatan himoyachisi faqat harakat qila oladigan emas, balki bardosh bera oladigan insondir. Ba'zan mendan so'rashadi: nima-dan kuch olasiz?

Men huquq-tartibot organlari xodimi sifatida quyidagicha javob bera-man: kerakli ekanligingni his qilishdan. Bu manmanlik emas, balki vazifangni anglash hissi yo'qolgan. Bola topilganini, mojarolar to'xtatilganini, xavf bar-taraf etilganini, inson uyiga sog'-omon qaytganini ko'rganingda, bu yo'lni nima uchun tanlaganingni tushunib yetasan. To'g'ri, bu doim ham minnat-dorchilik bilan to'la yo'l emas. Ha, bizni tanqid va muhokama qilishadi, ko'pincha bizdan ko'proq professionallik, muloqot madaniyati, shaffoflikni ta-

adolat va intizomni mustahkamlash.

Vatan burchga, qonunga, insonlarga, sadoqatga tayanadi. U biz asraydigan narsalarda mujas-sam: hayot, osoyishtalik, or-nomus, qadr-qimmat, insonning qo'rquvdan xoli yashash huquqi. Vatanni himoya qilish esa haqiqatan ham sharaflı burch, chunki bu mavhum tushuncha emas, balki tirik odamlar va biz asrashimiz lozim bo'lgan kelajak ol-didagi burchdir.

Biz xavf doim ham ko'zga ko'rinmaydigan va ovoz chiqarmaydigan davrda yashayapmiz. Ba'zan u telefonda, xabar-da, yosh qalbga sezdirmay singdirishga urinayotgan begona e'tiqodda paydo bo'ladi. Ba'zida u keksa-larning ishonchidan foy-



chi» so'zi nafaqat postda turishga tayyorlikni, balki fikrlash, tushunish, oldin-dan ko'ra bilish, vaziyatni aql, qonun va sabr bilan boshqarish qobiliyatini ham anglatadi.

«Qalqon» so'zini eshit-ganda ko'pchilik, metall va zirhlarni tasavvur qiladi. Aslida davlatning qalqoni odamlardir. Ularning xarakteri, bardoshi, mahorati, eng muhimi, axloqiy pokligi. Chunki Vatanni

qo'ymaslik. Bugungi kunda tahdidlar shaklan o'zgar-moqda, ayyor, nozik va tezkor bo'lib bormoqda. Ba'zida ular momaqal-diroqdek emas, shivirlab, aldov orqali, yopiq eshik ortidagi oilaviy zo'ravonlik orqali, taqdirlarni barbod qiluvchi giyohvandlik moddalar orqali, ma'noni nafrat bilan almashtiradi-gan ekstremistik g'oyalar orqali, nafaqat pulni, balki ishonchni ham o'g'irlay-digan kiberjinoyatlar orqali keladi. Agar kimdir Vatan chegaradan boshlanadi deb o'ylasa, men boshqa-cha fikrdaman: Vatan bola o'zini xavfsiz his qilishi lozim bo'lgan uy ostonasi-dan, maktab darvozasidan, haydovchi boshqalarning hayotini o'ylashi shart bo'lgan yo'ldan, insonga hurmat qadrlanadigan mahalladan boshlanadi.

Ko'pincha vatanpar-varlikni baland ovozda tushuntirishga urinishadi, go'yo ovoz qanchalik baland bo'lsa, his-tuyg'u shunchalik chuqur bo'la-di, deb. Biroq Vatanga bo'lgan haqiqiy muhabbat baqiriqqa muhtoj emas. U aniqlik va halollikda, o'z vaqtida yetib kelish qobiliyatida, boshqalar-ni mehnati, tinchligi va dard-alamiga hurmat ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Aytish mumkinki,

vatanparvarlik inson lo-qaydlikni yenggan joydan boshlanishiga ko'p bor ishonch hosil qilganman.

Har bir himoyachi ortida oilasi bor. Kutishga o'rgan-gan ayolning sabri, bolalik-dan yolg'on gapirmaslikka o'rgatgan otaning qat'iy nigohi, na zirhli nimcha, na texnika o'rnini bosa oladigan onaning duosi, senga qarab so'zmas, balki xatti-harakatlarni o'rga-nayotgan farzandlar bor. Agar biz ba'zida vazmin va qattiqqo'l bo'lib ko'rinsak, bu o'zimizni nazorat qilish odatimiz tufaylidir. Ammo qalbimizda hammamiz bir narsani orzu qilamiz: odamlar xotirjam yashasin, xonadonlarda ko'z yosh kam to'kilsin, yoshlar halol yo'lni tanlasin, «qonun» so'zi chaqiriq emas, tayanch sifatida jarangla-sin.

Vatanimiz muqaddas va uni himoya qilish chindan ham, sharaflı burchdir. U biz sevgan insonlar, bo-laligimizda yurgan ko'cha-lar, bizni kutayotgan uylar, qo'rquv, jinoyat va loqayd-likka topshirib bo'lmay-digan kelajak oldidagi burchimiz bo'lgani uchun sharaflıdir.

Azamat AHMATOV,
IIV T va TOXTD Axborot
xizmati bosh mutaxassisi,
kapitan.



lab qilishadi. Ammo aynan yetuk jamiyat talab qilish-ga haqli, yetuk davlat esa tizimni takomillashtirishga majbur.

Bunda ham Vatanga muhabbat namoyon bo'la-di: muammolardan ko'z yummaslik, balki ularni tuzatish, shu bilan birga,

dalanuvchi firibgarlarning kiber hiylasiga yashiri-nadi. Ba'zida u masalani zo'ravonlik, kamsitish, baqirish bilan hal qilish odatida yashaydi, go'yo bir ishora bilan inson qadr-qimmatini yo'qqa chiqarish mumkindek. Shu sababli, bugun «himoya-

himoya qilish faqat tashqi tahdidlarga qarshi tura olish emas. Bu jamiyatning ichki barqarorligini saqlay bilish qobiliyati hamdir: jinoyatning me'yorga aylanishiga, qo'rquvning odatga aylanishiga, be-farqlikning insoniy muno-sabatlarni buzishiga yo'l

Tergovni bilimdonlar olib boradi

SUKUTDAGI ADOLAT

Tergovchi xonasiga kirgan odam avval sukutni his qiladi. Bu oddiy jimjitlik emas, u yerda soʻzlar taroziga solinadi, dalillar oʻlchanadi, inson taqdiriga daxldor qarorlar tugʻiladi.

Hayotbek Abdurahimov 2015-yilda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining tergov faoliyati yoʻnalishini tamomlab, xizmat yoʻlini Uchqoʻrgʻon tumani IIB huzuridagi tergov boʻlinmasida tergovchi sifatida boshladi. Namangan shahar tergov boʻlimi, viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi, OʻMIB tizimi uning uchun sabr-toqat, tafakkur va masʼuliyat maktabi boʻldi. 2021-yildan 2025-yilga qadar Norin tumani IIB huzuridagi Tergov boʻlinmasiga rahbarlik qildi. Bu davrda u faqat tergovchi emas, balki boshqalar taqdiriga ham javob beradigan rahbarga aylandi.

Bugun mayor Hayotbek Abdurahimov Uychi tumani IIB huzuridagi Tergov boʻlinmasi boshligʻi. Uning ish stoli ustida jinoyat ishlari, murojaatlar, qogʻozlar talaygina. Ammo u uchun eng muhimi – ular ortidagi



insonlar. Shuning uchun ham kechiktirib boʻlmas tergov harakatlarini nafaqat oʻz vaqtida oʻtkazadi, balki har bir qarorni mulohaza bilan qabul qiladi.

Tergovda har doim ikki qarama-qarshi tomon bor: ayblovlari va inkor, daʼvo va rad. Haqiqat esa ularning oʻrtasida, koʻpincha jim turadi. Uni koʻrish uchun favqulodda diqqat kerak. Hayotbek Abdurahimov ana shu diqqatni yoʻqotmaslikka harakat qiladi.

U boʻlinmadagi tergovchilarga ham aynan shuni uqtiradi. Dalil aybni isbotlash uchun emas, haqiqatni ochish uchun xizmat qilishi kerak. Ayblovlari dalillar qanchalik muhim boʻlsa,

aybni inkor etuvchi holatlar ham shunchalik ahamiyatli. Chunki tergov kimnidir aybdor qilish emas, haqiqatni topish jarayonidir.

– Bu faoliyatda inson huquqlari asosiy mezon hisoblanadi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Shuning uchun ham fuqaroni tinglash, uning gaplarini tahlil qilish, shoshmasdan xulosa chiqarish kundalik ish tartibimizga aylanmogʻi kerak.

Tergovni qonun bilan vijdan oʻrtasidagi suhbatga oʻxshataman. Bu suhbat qanchalik mulohazali boʻlsa, jamiyat ham shunchalik adolatli boʻladi.

Jahongir TOʻXTASINOV,
oʻz muxbirimiz.
Namangan viloyati.

Mardlar qoʻriqlaydi Vatanni

ILGʻORLIK UNGA YARASHADI

Mayor Abdulaziz Joʻrayev Fargʻona viloyatining Uchkoʻprik tumanida, oddiy ishchilar oilasida dunyoga kelgan. Oilada toʻrt oʻgʻilning kenjasi boʻlgan lavhamiz qahramoni harbiy xizmatdan soʻng, 2012-yili IIV Toshkent oliy harbiy-texnik bilim yurtiga oʻqishga kirdi. 2016-yilda taktik-tarbiyaviy qoʻmondonlik yoʻnalishi boʻyicha oliygohni muvaffaqiyatli tamomladi.

Mana, salkam oʻn yildirki, u IIV Qorovul qoʻshinlariga qarashli 7531-harbiy qismda xizmat qilmoqda. Dastlab guruh komandiri sifatida xizmatni boshlagan boʻlsa, hozir 2-batalyon komandiri lavozimida.



– Sharafli kasbimdan gʻururlanaman, – deydi mayor Abdulaziz Joʻrayev. – Ozmi-koʻpmi, erishayotgan yutuqlarim esa menga yanada katta kuch, gʻayrat va shijoat bagʻishlaydi.

Oʻz kasbining yetuk mutaxassisi sanalgan mayor A. Joʻrayev oʻtgan yili mamlakatimiz Qurolli Kuchlari miqyosida oʻtkazilgan «Oʻz kasbining ustasi» koʻrik-tanlovining respublika bosqichida «Eng ilgʻor batalyon komandiri» nominatsiyasi gʻolibi deb topildi.

Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.

Ikkinchi isteʼdod

QOʻSH IQTIDOR SOHIBI

Kapitan Furqat Qiyomovda sanʼatga qiziqish bolalikdan yoʻldosh. Qarshi shahridagi 5-maktabda oʻqib yurgan kezlari dayoq musiqa toʻgaragiga qatnadi. Talabalik yillarida esa «Quvnoqlar va zukkolar» oʻyinlarida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti jamoasining faol, iqtidorli aʼzosi sifatida koʻzga tashlandi.

Furqat ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2017-yili viloyat IIB huzuridagi Qoʻriqlash boshqarmasi kadrlar boʻlimi kichik inspektorligidan boshladi. Mayor Komiljon Abduramonovdan soha sirlarini oʻrganib, tajriba va malakasini boyitdi.

Keyinchalik Chiroqchi tumanidagi 4-sonli IIB Navbatchilik qismi kichik inspektor-navbatchisi vazifasida faoliyatini davom ettirgan Furqat Qiyomov bevosita xizmat vazifasini yaxshi uddalash barobarida, jamoat

ishlarida, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarda faol qatnashib, rahbariyat va hamkasblari eʼtiborini qozondi.

Qariyb besh yildan buyon Chiroqchi tumani IIB Kadrlar bilan taʼminlash guruhi katta inspektori lavozimida faoliyat koʻrsatayotgan lavhamiz qahramoni ayni paytda xodimlarning kasbiy, jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirishga katta hissa qoʻshib kelmoqda.

– Kapitan Furqat Qiyomov oʻz ishini yaxshi biladigan tajribali



xodim, – deydi tuman IIB boshligʻining maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari, podpolkovnik

Alimardon Rahimov. – Oʻtgan yili shahar-tuman IIB Kadrlar bilan taʼminlash guruhi katta inspektori oʻrtasida ish hujjatlarini yuritish yoʻnalishida eng namunali xodim deya eʼtirof etilgani bejiz emas. Shu bilan birga, ajoyib ovozi bor, bayram tantanalari, turli maʼrifiy tadbirlar usiz oʻtmaydi.

Kapitan Furqat Qiyomov namunali oila sohibi ham. Turmush oʻrtogʻi Nodiraxon bilan 3 nafar farzandni tarbiyalamoqda. Otasi Rahmatullo bobo va onasi Nasiba aya esa u bilan faxrlanib umrguzaronlik qilmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
oʻz muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Mahalla tinch — yurt tinch

«MEN ENDI QO'RQMAYMAN»

– «Inspektor aka, erim bir kuni meni yoki bolalarimdan birini urib o'ldirib qo'ymasmikin...?»

Ammajon Qalandarovaning ovozi titrab chiqdi. Ayolning gapi inspektorning yuragiga nafaqat hadik, balki jiddiy qutqu soldi. Profilaktika katta inspektori, mayor Otajon Yoqubov ayolning tiliga ko'chgan bu xavotiri kecha yoki bugun paydo bo'lmaganini, balki yillab ichiga yutib yashalgan umrning xulosasi ekanligini angladi. Chunki, uning turmush o'rtog'i I. Madrimovning ichsa o'zini yo'qotishini, to's-to'palon qilib, uyini jang maydoniga aylantirishiga o'zi ham bir necha bor guvoh bo'lgan, tegishli qonuniy chora ko'rgan edi. Ammo bu gal qat'iy qaror qildi.

– «Ro'yxatda turibsiz. Tag'in ichyapsiz. Bu holda beixtiyor jinoyat qilishingiz mumkin», – dedi u to'g'ridan-to'g'ri I. Madrimovga.

U boshini irg'ab tasdiqladi. O'sha kuni u narkologiya dispanseriga yuborildi.

Oradan 90 kun o'tdi.

I. Madrimov bu kunlar davomida devorga tikilib o'tirdi. Hamma nar-



sani yo'qotganini o'yladi. Ammo aslida shu 90 kun uni jinoyatdan ham, oilaning parokanda bo'lishidan ham qutqardi.

Dispanserdan kelganidan so'ng ham inspektor tashlab qo'ymadi. Har hafta kelib xabar oldi. Hol so'radi. Suhbat qildi. Ogohlantirdi. Qo'llab-quvvatladi. Chunki e'tibor-

siz tashlab qo'yilgan odam – yana ichishga qaytadi. Mahalla yetiligi, hokim yordamchisi ko'magida uni tadbirkorlikka yo'naltirishdi. Uyga pul kirib kela boshladi. Uyga tinchlik qaytdi. Ammajon esa birinchi marta shunday dedi:

– Men endi qo'rqmayman.

Bu bir oilaning qismati misoli.

O'tgan yilda «Buyuk ajdodlar» mahallasida 218 ta ijtimoiy muammo aniqlandi. Shulardan 209 tasi hal etildi.

Inspektor mayor O. Yoqubov 10 yildan buyon xizmatda. Bog'otdan Hazoraspgacha, Gurlandan Tuproqqal'agacha bo'lgan eng og'ir manzillarda ishlagan. Voyaga yetmaganlar, janjalli oilalar, umidini yo'qotgan odamlar bilan suhbatda bo'lgan. Qayerda ishlamasin lavozimni mansab deb emas, xalqqa xizmat qilish deb bilgan. Bilimi, to'plagan tajribasi, sabr-toqati va insonparvarligi sabab elda obro' orttirganlardan biri sanaladi. Hozirgi lavozimida ham erta-yu kech xalq orasida bo'lib, mahallada odamlar dardini eshitadi. Huquqiy yordam beradi. Janjalkashlarga esa qonuniy chora ko'radi. Chunki haqiqiy profilaktika inspektori – qonunni ham, insonni ham birday himoya qila oladigan shaxsdir.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Nuqtayi nazar

TIL TAQDIRI — MILLAT TAQDIRI

Til — jamiyat taraqqiyotining asosiy belgilaridan biri bo'lib, millatning madaniyati, tarixi va ma'naviy qadriyatlarini avlodlardan avlodga yetkazish vazifasini ham bajaradi. Har bir til muayyan qonun-qoidalar, imloviy va grammatik me'yorlar asosida rivojlanadi. Ushbu me'yorlarga rioya qilish tilning sofliigi va barqarorligini ta'minlaydi. Biroq zamonaviy jamiyatda globallashuv, raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari ta'sirida til me'yorlarida jiddiy o'zgarishlar va buzilishlar kuzatilmoqda.

Til buzilishi deganda uning adabiy me'yorlaridan og'ishi, ya'ni grammatika, imlo va leksikadagi noto'g'ri qo'llanishlar tushuniladi. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlar nutqida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Kundalik muloqotda, ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarda so'zlarni qisqartirib yozish, shevaviy shakllardan hojat bo'lmagan o'rinlardan ham foydalanish, imlo qoidalariga rioya qilmaslik odatiy holga aylanmoqda. Natijada

adabiy til me'yorlarining ta'siri susayib, nutq madaniyatiga e'tibor kamaymoqda. Imloviy xatolar til buzilishining eng keng tarqalgan ko'rinishlaridan biridir. So'zlarning noto'g'ri yozilishi, harflarni almashtirib qo'llash yoki talaffuzga yaqin shaklda yozish nutqning aniqligi va tushunarligini pasaytiradi. Bunday holatlar nafaqat yozma nutqda, balki rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalarida va hatto ta'lim



jarayonida ham uchrab turibdi. Bunday xatolarning ko'payishi tilning adabiy me'yoriga bo'lgan ishonchni kamaytiradi.

Zamonaviy o'zbek tilidagi muammolarning yuzaga kelishida ijtimoiy omillar ham katta rol o'ynaydi. **Birinchi**dan, smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkor muloqot qilish jarayonida imlo va grammatik

qoidalariga e'tibor kamaymoqda. **Ikkinchi**dan, global madaniyat ta'sirida ingliz va rus tillaridan kirib kelayotgan so'zlar nutqda keng qo'llanilmoqda, bu esa tilda me'yordan og'ishlarga sabab bo'lmoqda. **Uchinchi**dan, ayrim yoshlar orasida til me'yorlariga nisbatan beparvolik, adabiy tilga nisbatan e'tiborsizlik holatlari kuchayib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, til buzilishi, ayniqsa, imloviy xatolar muammolari jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlarning bevosita natijasidir. Bu muammolarni bartaraf etish uchun ta'lim tizimida imlo va nutq madaniyatiga alohida e'tibor qaratish, imlo lug'atlarini takomillashtirish, ommaviy axborot vositalarida adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya qilish zarur. Eng muhimi, har bir fuqaro o'z ona tiliga mas'uliyat bilan yondashib, uni to'g'ri va me'yor asosida qo'llashga intilishi kerak. Chunki til millatning ma'naviy qiyofasi, tarixi va kelajagini belgilaydigan bebaho boylikdir.

Gulbahor SUYAROVA,
IIV Ixtisoslashtirilgan
maktab-internati
o'qituvchisi.



Soha fidoyilari

BOSIQLIK VA

SABR BILAN

Navoii viloyati IIB JXX Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2-safarbarlik guruhi katta inspektori, katta serjant G'olib Zarifov Karmana tumanidagi Buxoro va Samarqandni bog'lab turuvchi xalqaro ahamiyatga ega yo'l hududida xizmat olib boradi.

Bu yo'l orqali har kuni yuzlab tumanlararo va viloyatlararo qatnaydigan transport vositalari harakatlanadi. G'olib Zarifov xizmat faoliyatida faqat qoida buzilishini aniqlashga emas, balki tushuntirish va ogohlantirish ishlariga ham alohida ahamiyat beradi. Ayniqsa, tungi paytlarda uzoq yo'ldan charchab kelayotgan haydovchilar bilan suhbatlashib, ularga ko'zlagan manziliga eson-omon, beshikast yetib olishi uchun bir oz dam olishi zarurligini uqtiradi.

Nazorat tadbirlarining birida yuk avtomashinasi uning diqqatini tortdi. Haydovchi to'xtab o'tish kerak bo'lgan joyda to'xtamadi. Buni ko'rgan lavhamiz qahramoni to'xtash ishorasini berdi. Ammo mashina

ancha o'tib to'xtadi. Inspektor haydovchiga qoidabuzarlik sodir etganini tushuntirdi. Shunda haydovchi mashinaning tormozi ishlamayotganini aytdi. G'olib darhol evakuator chaqirib, avtoulorni ustaxonaga jo'natdi. Haydovchi esa qoidani buzganligi uchun jarimaga tortildi. Shu tariqa yana bir ehtimoliy falokatning oldi olindi.

Katta, serqatnov yo'lda xizmat qilish chog'ida turli fe'l-atvordagi haydovchilar bilan muloqot qilishga to'g'ri keladi. Kimdir shoshayotgan bo'ldi, kimdir asabiylashadi, yana kimdir qoidabuzarligini oqlashga urinadi. Bunday vaziyatlarda katta serjant G'olib Zarifov bosiqlik va sabr bilan qonun talablarini oddiy va tushunarli tarzda bayon etadi. Shu sababli uning so'zlari ko'p hollarda haydovchilar tomonidan to'g'ri qabul qilinadi.

Lavhamiz qahramoni ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2013-yilda boshlagan. Ayni paytda xizmat qilish bilan birgalikda Buxoro davlat texnika universitetida sirtidan tahsil olyapti. Niyati kelgusida ofitser bo'lish. Ana shunday qatiyatli, halol, izlanuvchan xodimlar sabab yo'llarda harakat xavfsizligi ta'minlanmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

Qilni qirg yorib

ZARRALARNI TILGA KIRITIB...

Voqea joyida topilgan kichik zarra, iz asl haqiqatga oydinlik kiritish uchun kifoya qiladi. Toshkent viloyati IIBB Ekspert-kriminalistika markazi xodimlari voqea joyidan olingan aшыoviy dalillar ustida sifatli ekspertiza tadqiqotlari o'tkazish orqali jinoyatlarni «issiq izida» fosh qilishga munosib hissa qo'shib kelyapti.

– Jinoyatchilar iloji boricha qilmishidan iz qoldirmaslikka harakat qilishadi, – deydi viloyat IIBB EKM Tahlil va texnik rivojlantirish guruhi bosh eksperti, mayor Agzam Bexodjayev. – Biroq har bir harakatdan keyin iz qoladi. Buni esa faqatgina soha mutaxassislari, ya'ni tajribali kriminalistlar payqay olishadi. Shu bois ham bizning xizmatimiz o'ta sinchkovlik va hushyorlikni talab etadi. Yana bir jihatni doim yodda tutish kerak, jinoyat joyini ko'zdan kechirish jarayonida olingan izlar, buyumlar nafaqat aybdorni topish, balki shu holatga aloqasi yo'q kishilarning shaxsiga aniqlik kiritishda ham qo'l keladi.

Ha, mutaxassisning so'zlari-da jon bor. Ko'p hollarda ilmiy asosdagi tahlillarning xulosalari kalavaning uchini topish va aybdorga qonuniy chora ko'rishda qo'l keladi. Shu o'rinda kriminalistikada kimyoviy ekspertizaning alohida o'rni borligini ta'kidlash joiz. Xususan, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq tahlillar kimlarningdir jinoiy qilmishiga borib taqaladi.

– Har qanday moddani bir qarashda baholash qiyin. Ayniqsa, jinoyat alomatlari bilan topilgan moddalar tahlili o'ta sinchkovlikni talab etadi, – deydi mayor Agzam Bexodjayev. – Sababi giyohvandlik vositalarining turi ko'p. Shu bois ham laboratoriyamizga



Suratda: Shaxsni identifikatsiya qilish guruhi bosh eksperti, mayor Hamid Rahimboyev.

olib kelingan moddalar bir nechta bosqichda tekshiriladi. Xususan, o'tgan 2025-yilda viloyat hududida joylashgan «Oybek» bojxona postida avtomashinadan ko'k rangli polimer qop ichida sariq rangli lentalar bilan o'ralgan yumshoq, suyuqsimon qoramtir-jigarrang rangdagi giyohvandlik vositasiga o'xshash modda topildi. Ashyoviy dalil sifatida rasmiylashtirilgan ushbu ko'p miqdordagi moddalar yuzasidan olib borilgan tahlillar ularning opiy guruhiga mansub giyohvandlik vositasi ekanligini tasdiqladi.

Ta'kidlash joizki, viloyat IIBB EKM ekspert-kriminalistlari o'tgan yilda viloyat hududida o'tkazilgan «Oriyat» tezkor qidiruv tadbirlarida, «Xavfsiz va sog'lom yurt» ko'p bosqichli tezkor-profilaktik tadbirlarda giyohvandlik vositalari ekspertizasi, maxsus kimyoviy ekspertizalar, ballistika va sovuq qurol eksperti-zalarini ham olib borishdi.

Sirasini aytganda, ular zarralarni o'z o'rnida tilga kiritishdek muhim vazifalarini mahorat bilan ado etib kelishmoqda.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



24-betdagi jumboqning javobi: sat yurishi boshlanganda.

Kasbim — faxrim



ENG OLIY BURCH

Yigit kishi uchun Vatan tinchligi va yurt osoyishtaligini asrashdan ulug' mas'uliyat bo'lmasa kerak. Bu tushuncha mening ongimga bolaligidan singib kelgan. Chunki otam Qudratbek Komiljonov uzoq yillar davomida harbiy qismda xizmat qilib, el-yurt xavfsizligini ta'minlashni o'z hayotining mazmuniga aylantirgan inson edi. Uning xizmatga bo'lgan sadoqati, intizomi va Vatanga muhabbati men uchun doim ibrat bo'lib keldi.

Shu bois el tinchligini qo'riqlashga qaratilgan kasbni tanlash men uchun tasodif emas, balki ongli qaror bo'ldi. Shu maqsadda Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida tahsil oldim. Bu dargohda nafaqat huquqiy bilim, balki inson taqdiri, jamiyat barqarorligi va fuqarolar bilan ishlash madaniyatiga oid muhim saboqlarni oldim. Akademiyani 2023-yilda tamomlab, Andijon tumanidagi «Kengash» mahalla fuqarolar yig'iniga profilaktika inspektori etib tayinlandim. Shundan buyon ushbu mahalla aholisining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash mening kundalik xizmat burchimga aylandi.

«Kengash» MFY tumanning eng chekka hududlaridan biri hisoblan-sa-da, u o'zining tartib-intizomi va aholining hamjihatligi bilan ajralib turadi. Mahallada salkam 4 ming nafar fuqaro istiqomat qiladi. Bunday katta hududda osoyishtalikni saqlash oson ish emas. Lekin tizimli yondashuv, aholi bilan yaqin muloqot va har bir oilaning holatini bilish orqali barqaror muhit yaratish mumkinligini amalda isbotlashga harakat qilmoqdaman. Buning natijasida o'tgan yil davomida hududda birorta jinoyat sodir etilmadi.

Bu tasodifan qo'lga kiritilgani yo'q. Avvalo, har bir xonadonga kirib, fuqarolar bilan yuzma-yuz suhbatlar o'tkazildi. Oilalarning turmush sharoiti, iqtisodiy ahvoli, o'zaro munosabatlari o'rganildi. Chunki jinoyatlarning ildizi ko'p hollarda oiladagi muhit, ishsizlik yoki ijtimoiy muammolar bilan bog'liq bo'ladi. Ana shu holatlarni barvaqt aniqlash orqali muammo-

ni uning ildizidayoq bartaraf etish mumkin. Shu asosda aholini ish bilan ta'minlash, kreditga yo'naltirish, tadbirkorlikka jalb etish kabi ishlar yo'lga qo'yildi. Ayni paytda ichkilikka moyil, janjalkash oilalar va jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan 10 nafar fuqaro bilan yakka tartibda ish olib borilmoqda. Ular bilan muntazam suhbatlar o'tkazib, hayotga bo'lgan qarashini o'zgartirish, jamiyatga qayta moslashishida amaliy ko'mak berilyapti.

Mening xizmatdagi o'y-fikrlarim, rejalarim ba'zan oiladagi muhitga ham ko'chadi. Boisi, turmush o'rtoq'im katta leytenant Rahimxon Jo'raboyeva Andijon shahar IIB tergovchisi vazifasida faoliyat olib boradi. Bu esa zimmasiga yuklatilgan vazifaning ijobiy ijrosini ta'minlashimizda qo'l keladi. Har bir ishni maslahatlashgan holda amalga oshiramiz.

Tan olish kerak, avvallari ichki ishlar organlari xodimlariga bo'lgan havasim bir tomonlama bo'lgan. Ularning egnidagi xizmat libosi, xulq-atvoridagi salobatlilik ko'proq e'tiborimni tortgan edi. Bugun esa bu kasb egalari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklatilganligini, har bir fikri, har bir qadamida insonlar taqdiri, hudud osoyishtaligi mujassam ekanligini yurakdan his etaman. Ana shu mas'uliyat meni bugun kechagidan, ertaga esa bugungidan-da faolroq xizmat qilishga undaydi.

Izzatbek YOQUBJONOV,
Andijon tumanidagi «Kengash»
MFY profilaktika inspektori,
katta leytenant.

Ijtimoiy profilaktika

OSOYISHTALIKNING
PISHIQ POYDEVORI

Jizzax shahridagi «Nurliobod» MFYda istiqomat qiluvchi Jamshid Yusupovga profilaktika inspektori tomonidan hokim yordamchisiga yuborilgan xulosa asosida 33 mln so'm imtiyozli kredit ajratildi. Tomorqasidagi 2 sotix yer maydoniga issiqxona qurishga sarflangan kredit mablag'i evaziga ikkita ish o'rnini yaratdi. Jamshid issiqxonadan unumli foydalanib, yetishtirilgan mahsulotlarni ichki bozorga sotib daromad olmoqda.



Bunday misollar mahallalar obodligi va xavfsizligini ta'minlashda ijtimoiy profilaktika tizimining o'rnini yaqqol ko'rsatadi. Viloyatimizda ushbu tizimni hayotga samarali tatbiq etish borasida mahalla yetiligi a'zolari, xususan, profilaktika inspektorlari ko'plab ishlarni olib borishmoqda.

Profilaktika inspektorlari tomonidan huquqbuzarlik sodir etish yoki undan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar haqidagi xulosalar o'z vaqtida mahalla yetiligidan yetkazilmoqda. Jumladan, o'tgan yili hokim yordamchilariga 9918 ta, xotin-qizlar faollariga 8447 ta, yoshlar yetakchilariga 7511 ta, ijtimoiy xodimlarga 5250 ta, soliq inspektorlariga 929 ta holat bo'yicha xulosalar berildi. Shu asosda ijtimoiy profilaktika obyekti hisoblangan shaxslarning muammolarini ijobiy hal etish choralari ko'rildi. Natijada yordam

ko'rsatilgan shaxslarning 233 nafari jamoat ishlariga jalb etildi, 652 nafari ishga joylashtirildi, 5280 nafari o'zini o'zi band qilib, soliq imtiyozlariga ega bo'ldi.

Subsidiya olgan, hunarmandchilikka jalb etilgan, yer berilgan, kasb-hunarga o'qitilgan, kredit ajratilib tadbirkor bo'lgan yurtdoshlarimiz ham talay. Shuningdek, 3486 nafar vohadoshimiz bir martalik moddiy yordam va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlandi. 96 nafari tibbiy muassasaga joylashtirildi, 1995 nafariga ijtimoiy xizmat, 1280 nafariga psixologik yordam ko'rsatildi. Ajrimi to'xtatilgan, himoya orderi berilgan, to'lov-shartnoma mablag'i to'langan yoshlar ijtimoiy profilaktika tizimidan mamnun.

Donobek KARIMOV,
Jizzax viloyati IIB
Huquqbuzarliklar profilaktikasi
boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari,
mayor.



Hafta qahramonlari

VIJDON AMRI BILAN

Risolat opa to'rt farzandni yolg'iz o'zi halol mehnat qilib voyaga yetkazdi. Oilada kenja farzand bo'lgan Amirxon onasining suyan-chi bo'lish bilan birga, marhum otasining armonini ushatishga ahd qilgandi. Otasi – Rustamxo'ja aka ichki ishlar organlarida xizmat qilishni orzu qilgan, ammo bu hayotdan erta ko'z yumgan.

Bektemir tumanini IIOFMB huzuridagi Qo'riqlash xizmati 2-tezkor harakatlanuvchi guruh safdor xodimi, kichik serjant A.To'rayev 2018-yildan buyon sohada faoliyat olib boradi. Uning uchun har bir xizmat kuni – sinov va mas'uliyat.

yubormaslik uchun sezdirmasdan ko'prik ustiga chiqishdi. Safdor Asadillo Qahhorov esa pastda avtomobillar harakatini to'xtatib, ko'prik ustidagi fuqaroni chalg'itib turdi. Hal qiluvchi soniyalarda kichik serjant A.To'rayev hamkasbi bilan 1987-yilda tug'ilgan

ga yuklatilgan vazifani professional darajada bajaradi.

Lavhamiz qahramoni faoliyati davomida bir nechta jinoyatlarning «issiq izida» ochilishida ham jonbozlik ko'rsatgan. Jumladan, o'tgan yilning 16-iyul kuni tongi soat 04:00 larda Bektemir tumanidagi ko'p qavatli uylarning kirish qismiga o'rnatilgan «tashvish tugmasi»dan xabar tushadi. Tezkor harakatlanuvchi guruh tarkibida voqea joyiga yetib borgan A. To'rayev profilaktika inspektori va PPX



Xodimning sergakligi va tezkorligi sabab yaqinda bir insonning hayoti saqlab qolindi. Joriy yilning 3-yanvar kuni soat 19:20 larda Bektemir tumanidagi «Qo'yliq» bozori yaqinidagi ko'prikda mast holatdagi fuqaro o'zini pastga tashlamoqchi bo'ladi.

Shu atrofda xizmat o'tayotgan kichik serjant Amirxon To'rayev va uning hamkasblari kichik serjant Sanjar Qo'chqorov hamda safdor Asadillo Qahhorov zudlik bilan harakatga tushishdi. Har bir soniya g'animat. Vaziyat nihoyatda qaltis edi. Amirxon va Sanjar fuqaroni cho'chitib

ushbu fuqaroni chaqqonlik bilan ushlab qolishdi.

Jarayonlarda bevosita ishtirok etgan Bektemir tumani IIOFMB huzuridagi Qo'riqlash xizmati boshlig'i o'rinbosari, kapitan Ahmadjon Abdurahimov kichik serjant A.To'rayev haqida shunday deydi:

– Kichik serjant A.To'rayev xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashadigan, sohaning o'ziga xos jihatlarini o'zlashtirgan xodimlardan biri. Uning eng muhim xislati – murakkab vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qila olishidir. Shu bois har safar zimmasi-

xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan ko'zdan kechirish jarayonida shubha ostiga olingan shaxslarning yonidan polietilen paketga o'ralgan giyohvandlik moddasi topiladi.

Kichik serjant Amirxon To'rayev onasining faxri, marhum otasining orzusini amalga oshirgan asl o'g'lon. Zero, ichki ishlar organlari xodimi bo'lish – bu shunchaki yumush emas, balki ichki matonat va vijdon amri bilan bajariladigan muqaddas burchdir.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Kasb fidoyisi

Mayor Ulug'bek Naimov ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2016-yilda boshlagan. Qaysi hududda ishlamasin, o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashib, ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Faoliyatining ilk yillarida u Termiz tumanidagi «Termiz», «Ayritom» va «Do'stlik» mahallalarida profilaktika inspektori sifatida xizmat qilib, qidiruvda bo'lgan shaxslarni qo'lga olish, jinoyatlarni «issiq izida» ochishda faol ishtirok etdi. Hozirda Termiz tumanidagi «Xalqobod» mahalla fuqarolar yig'inida jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash yo'lida tun-u kun xizmat olib bormoqda.

«XALQOBOD»DA HAMMA YOQ TINCH



Bir paytlar «Xalqobod» jinoyatchilik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan, «qizil» toifaga kiritilgan hudud hisoblanardi. Mahallani «yashil» toifaga olib chiqish oson kechmadi. Bu yo'lda Ulug'bek Naimov tom ma'noda sabr, matonat va mehnat namunasini ko'rsatdi.

– Qariyb 7 yildan beri ushbu mahallada faoliyat ko'rsatyapman, – deydi mayor Ulug'bek Naimov. – Hudud aholisini, xonadonlardagi ijtimoiy holatni yaxshi bilaman. Avvalo, profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlashni yo'lga qo'yganman va bu doimiy vazifamga aylangan. Shu bois natijalar yomon bo'lmayapti.

Mamlakatimizda ijtimoiy profilaktika tizimi joriy etilgandan so'ng mahalladagi ishsiz, muammosi mavjud fuqarolar bilan ishlash yangi bosqichga ko'tarildi. O'tgan yilning o'zida ijtimoiy profilaktika yo'nalishida 305 ta xulosa tegishli tashkilot va mutaxassislariga taqdim etildi. Natijada 30 nafar fuqaro doimiy ishga joylashtirildi, 15 nafar imkoniyati cheklangan shaxsga nogironlik aravachalari olib berildi. Shuningdek, tuman davlat soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarga yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda amaliy yordam

ko'rsatildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga bir martalik moddiy yordam ajratildi. Bundan tashqari, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan 20 nafar xotin-qizga himoya orderlari rasmiylashtirildi.

Profilaktika inspektori har bir muammoni imkon qadar mahallaning o'zida hal etishga harakat qiladi. Bu ishlarda mahalla faollari va faollari, soha mutaxassislari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Natijada ishsizlar ishli bo'lmoqda, fuqarolarning murojaatlari o'z vaqtida hal etilmoqda. Muhimi, bu chora-tadbirlar jinoyatchilikning oldini olishda samarali mexanizm sifatida o'zini oqlamoqda.

Mayor Ulug'bek Naimov o'tgan yili profilaktika inspektorlari orasida eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishgani uchun kompyuter jamlanmasi bilan taqdirlandi.

Tinch va osoyishta hayot – bu o'z-o'zidan paydo bo'ladigan holat emas. Bugun «Xalqobod» mahallasidagi osoyishtalik sidqidildan xizmat qilayotgan profilaktika inspektori, mayor Ulug'bek Naimovning bir qarashda ko'zga ko'rinmas, ammo nihoyatda muhim mehnati, fidoyiligi samarasidir.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



Fotolavha



II V Qorovul qo'shinlari 7531-harbiy qism qo'riqlab borish bo'yicha 1-batalyon 2-o'qchi vzvodi 2-o'qchi guruhi komandiri, leytenant Azamatjon Odilov

Qonunchilikdagi yangiliklar

«O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining faoliyati Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan uzviy hamkorlikda tashkil etiladi.

2026-yil 1-iyuldan davlat organlari va tashkilotlarida 2030-yilgacha bosqichma-bosqich korrupsiyaga qarshi Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimi joriy etiladi. Bunda:

- ushbu tizim birinchi navbatda Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi natijalariga ko'ra «qoniqarsiz» deb baholangan davlat organlari va tashkilotlarida joriy etiladi;
- davlat organlari va tashkilotlarida Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimini joriy etish Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan reja-grafikka muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshiriladi;
- Milliy sertifikatlashtirish menejment tizimining belgilangan muddatlarda joriy etilmaganligi davlat organi yoki tashkiloti rahbari va o'rinbosarlariga tizim joriy etilgunga qadar bo'lgan muddatda barcha rag'batlantirish to'lovlari to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

Agentlik, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari, ilmiy muassasalar, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari va fuqarolik jamiyati institutlarining doimiy hamkorligiga asoslangan Korrupsiyaning oldini olishning yaxlit tizimi joriy etiladi.

MEN – O'ZBEKISTON
FUQAROSIMAN

Nukus shahri. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasida doimiy yashab kelayotgan 22 nafar shaxsga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi.

Fuqarolik pasportini topshirish marosimi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi F. Ermanov hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, polkovnik Baxtiyar Torebekov ishtirokida bo'lib o't-

di. Tegishli qaror mamlakat qonunchiligiga muvofiq qabul qilinib, unda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy maqomini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Fuqarolikni olgan shaxslar jamiyat hayotida faol ishtirok etish, mehnat qilish, ta'lim olish va ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Sirdaryo viloyati



Viloyatda istiqomat qiluvchi 11 nafar shaxsga Prezidentimiz farmoniga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi.

– Bu kunlarni yigirma yilga yaqin kutdim, – deydi Qumri Madaminova. – Davlatimiz rahbariga tashakkur! Men uchun bu bayramga o'ziga xos sovg'a bo'ldi.

Yangiyer, Guliston shaharlari, Boyovut, Mirzaobod tumanlari hokimligida bo'lib o'tgan tadbirlarda ushbu shaxslarga ID-kartalar tantanali ravishda topshirildi.



BIZ SEVGAN AKTYORLAR

San'atkorlar sulolasi haqida so'z ketarkan, xalqimiz sevib ardoqlagan Uzoqovlar, Zokirovlar, Jo'rayevlar, Rajabiyalar kabi ko'plab sulolalarning madaniyatimiz va san'atimiz rivojiga qo'shgan ulkan hissalar haqida betinim gapirish mumkin. Milliy teatr va kino san'atida yorqin obrazlarni yaratgan Rejamentovlar oilasi shunday sulolalardan biridir.



Sulola boshlig'i To'g'on Rejamentov 1957-yili birinchi kurs talabasi bo'lgan chog'idayoq institut pedagoglari va «O'zbekfilm» kinostudiyasi rejissyorlarining e'tiborini o'ziga jalb qildi. Uning xarakterli yuz tuzilishi, jingalak qalin sochlari, yonayotgan ko'zlarining izlanuvchanligi aktyorlik qobiliyatiga yaxshi qo'shimcha bo'ldi. Kinoda ishlash taklifi birin-ketin davom etdi. O'qish yillari davrida To'g'on rejissyorlar Latif Fayziyevning «Ikkinchi gullash», Yo'ldosh A'zamovning «Rad etilgan kelin», Ravil Botirovning «Sening izlaring» filmlarida suratga tushgan. Yosh aktyor Nabi Rahimov, Olim Xo'jayev, Zikir Muhammadjonov kabi taniqli teatr va kino san'atkorlari bilan birga suratga olish maydonchasida tajriba o'rtirdi.

Ayniqsa, 1966-yilda R. Botirovning «26-si otilmasin!» filmidagi roli To'g'on Rejamentovga mashhurlik olib keldi. O'zbek razvedkachisi Said Islombekning Ikkinchi jahon urushi yillarida Berlingdagi fojiali taqdiri va xavfli faoliyati haqidagi badiiy film millionlab tomoshabinlar qalbini zabt etdi.

T. Rejamentov nozik didli aktyor sifatida rejissyor Xo'ja Ahmarning «Qaldirg'ochlar bahorda uchib keladi», Albert Xachaturovning «Quyoshning issiq nuri ostida» filmlarida chuqur psixologik va lirik obrazlar yaratgan. U «Tojikfilm» studiyasida rejissyor Boris Kimyogarovning «Do'stlar», «Sverdlovsk kinostudiyasi»da «Ko'chmanchi front» filmida Suxe Bator rolini o'ynagan. To'g'on Rejamentov ijrosidagi qahramonlar obrazlari bir necha avlod kinoijodkorlari uchun samimiylik, jasorat va ezgulik mezoniga aylandi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, taniqli teatr va kino aktyori To'g'on Re-

jamentov 1982-yilda 44 yoshida yo'l-transport hodisasi oqibatida fojiali tarzda vafot etgan.

To'g'on Rejamentovning turmush o'rtog'i Shirin Azizova ham 1961-yilda Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutining aktyorlik fakultetini tamomlagan. To'g'on buxorolik Shirin bilan Sirdaryo dalalaridagi paxta terimida tanihib, unga ko'ngil qo'ygan va ular turmush qurishgan.



Shirin Azizova 1961–1964-yillarda Namangan musiqali drama teatri aktrisasi, 1968–1987-yillarda Abror Hidoyatov nomidagi O'zbek davlat drama teatri, 1987-yildan O'zbek Milliy akademik drama teatri aktrisasi sifatida faoliyat yuritgan. O'zbekiston xalq artisti Sh. Azizova ijodiga lirik, dramatik rollar yaqin bo'lib, obrazlarining hayotiyli, sahna nutqining mukammalligi bilan ajralib turadi. Aktrisa «Xolisxon» spektaklida Xolisxon, «Ishq qurbonlari»da Sora, «Maysaraning ishi»da Maysara, «Birinchi muhabbat»da Rohila, «O'n sakkiz yoshligim»da Muhabbat, «O'tkan kunlar»da O'zbekoyim, «Chimildiq»da qaynona va boshqa rollari orqali o'zbek kino va teatr san'atida hamda xalqimiz qalbida o'chmas iz qoldirgan.

Rejamentovlar oilasida tug'ilgan katta o'g'il Zuhridin va egizaklar – Fotima bilan Husan ham



taniqli san'atkorlarga aylanishdi: Zuhridin Rejamentov «O'zbekfilm» kinostudiyasi aktyori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Fotima Rejamentova va Husan Rejamentovlar Respublika yoshlar teatri aktyorlari.

Zuhridin Rejamentov «Achchiq danak», «Chinor ostidagi duel», «Klinika», «Armon», «Shaytanat», «Bir kam Dunyo», «Kichkina odamlar», «Ta'ziyadagi to'y» kabi ko'plab filmlardagi rollari orqali tomoshabin mehrini qozongan.

O'zbek kinosining yorqin namoyandasi, o'zining o'lmas obrazlari bilan har bir yurtdoshimiz qalbida yashab, olqishlarga sazovor bo'lgan Rejamentovlar sulolasining munosib davomchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Fotima

Fotimaning farzandlari ham shu kasbning yorqin namoyandalari-dan. Uning qizi aktrisa Farangiz Rejamentova (Jamolxonova) «Sehrli qalpoqcha», «Uy bekasi» va boshqa o'nga yaqin film va seriallarda rollar ijro etgan. Shuningdek, Zulfiqor Musoqovning «Oyijon» filmida bosh qahramonni o'ynagan. Afsuski, uning hayoti 25 yoshida yo'l-transport hodisasi oqibatida fojiali tarzda tugagan.

Fotima Rejamentovaning o'g'li aktyor Firdavs 2025-yil «Bollivud



battl» musiqiy televizion tanlovi-ni final bosqichi ishtirokchisi. U o'zining yorqin iste'dodi bilan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Bugungi kunda ota-onasining yo'lidan borgan bir qator ijodkorlar ko'plab yutuqlarga erishib kelmoqda. Ular orasida muxlislar muhabbatiga sazovor bo'lgan xonandalar, aktyor va aktrisalar, bir



Rejamentova 6 yoshida «Jazirama quyosh ostidagi uy» filmida birinchi rolini ijro etgan. Bugungi kunda Rejamentovaning kinoda 60 dan ortiq roli va 40 ga yaqin teatr obrazlari bor.

so'z bilan aytganda, san'at olami vakillari bisyor. Biz esa ular haqida ko'proq ma'lumotlarni xalqimizga yetkazib berishda davom etamiz.

G'ayratulla SHUKUROV.



Саломатлик сабоқлари

ТВОРОГ ҲАМ
«НАФАС ОЛАДИ»

Сут маҳсулотлари орасида творог инсон саломатлиги учун энг фойдали ҳисобланади. У кальций, оқсил ва организм учун зарур бўлган қатор витаминларга бой. Бироқ бозор ёки дўкандан творог харид қилаётганда унинг сифатига алоҳида эътибор бериш муҳим.

Аввало, маҳсулот номи билан қизиқинг. Савдода «творог», «творожник», «творогли масса», «творогли маҳсулот» каби номлар учрайди. Улар бир-бирига ўхшаш бўлса-да, барчаси ҳам соф творог эмас. Турдош маҳсулотларга турли қўшимчалар қўшилади, шу боис ҳақиқий творогни фарқлай билиш керак.

Мутахассислар истеъ-мол учун ёғлилик даражаси 9 фоизгача бўлган творогни энг мақбул, деб ҳисоблайдилар. Айниқса, бу тури кекса ёшдагилар ва ортиқча вазнга эга кишилар учун фойдалидир.

Творог танага яхшироқ сингиши учун уни куннинг соат 15:00 дан 19:00 гача бўлган вақтида истеъмол қилиш тавсия этилади. Чунки эрталаб буйрак фаол бўлиб, кальцийни организмдан тез чиқариб юборади.

Сифатли творог нордон бўлмайди. Агар у қўл билан уқаланганда ўз тузилишини сақлаб қолса ва терида енгил ёғли из қолдирса, бу маҳсулот сифатли эканидан далolat беради. Нордон



таъм эса сақланиш муддати яқинлашиб қолганини кўрсатади. Ҳақиқий творогнинг ранги оқиш-қаймоқранг бўлади. Сарғишроқ бўлса, маҳсулот таркибига қўшимчалар қўшилган бўлиши мумкин.

Эътиборли жиҳати шундаки, сифатли творог арзон бўлмайди. Чунки 1 килограмм табиий творог тайёрлаш учун тахминан 6 литр сут сарфланади. Шу боис жуда арзон маҳсулотга ҳам учманг. Творог тез бузиладиган маҳсулотлар қаторига киради. Шунинг учун имкони борича янги тайёрланганини харид қилиш мақсадга мувофиқ. Унинг сақланиш мудда-

ти 2–6 даража ҳароратда 36 соатдан ошмаслиги керак. Агар қадоқда узоқ муддат сақланиши кўрсатилган бўлса, бу таркибида қўшимчалар борлигини англатади.

Дарвоқе, творогни –18 даража совуқда 6–7 ойгача музлатиб сақлаш мумкин. Қадоқ очилгандан сўнг эса маҳсулотни совуткичда сирли идишга солиб, оғзини ёпган ҳолда сақлаш лозим. Бироқ идишда ҳаво айланиши таъминланиши керак, чунки творог ҳам «нафас олади».

Дилором ЭРГАШЕВА,
ИИБ Марказий
поликлиникаси
педиатри.

КЎЗНИ ЎТКИР
ҚИЛАДИ

Қуёшли ва илиқ иқлим шароитларида ўсадиган арпабодиён эфир мойлари, А ва В гуруҳи витаминлари, темир, кальций, калий, магний ва бошқа элементларга бой.

У яллиғланишга қарши, антисептик хусусиятларга эга бўлиб, грипп ва йўталдан фориғ этади, овқат ҳазмини енгиллашти-ради, тери ҳолатини яхшилаш ва имму-нитетни оширишга хизмат қилади. Шу билан бирга, қон айланишини яхшилайди, буйрак ва юрак-қон томир фаолиятига ижобий таъсир кўрсатиб, қон босимини туширади. Унинг дамламаси ошқозон-ичак фаолияти учун жуда фойдали, уйқусизлик, шамоллаш, қорин дам бўлиши ва қабзиятдан халос этади, асаб тизими-га тинчлантирувчи таъсир кўрсатади. Шунингдек, юқори нафас йўллари-нинг шамоллаши, ларингит, йирингли бронхит, ўпка гангрена-си, қизамиқ касал-ликларини даволашда фойдаланилади.

Бу ўсимлик халқ табобатида кенг қўлланилган. Мисол учун, Ҳиндистонда ундан пешоб ҳайдовчи восита сифатида фойдаланилган. Болгарияда эса арпабодиён бронх-ўпка тизими касалликларини даволовчи ва оғриқ қолдирувчи сифатида ишлатилади. Шарқ табобатида у асабийлик ҳолати-да, тана ҳарорати кўтарилганда ва ўт ажралиши қийинлашганда тавсия этилади. Абу Али ибн Сино арпабодиён ҳақида «У кўзни ўткир қилади ҳамда кўзга сув тушиш (яъни катаракта) бошланган вақтда фойда қилади», – деган. Шунингдек, боши оғриган одамга унинг уруғини қиздириб, тутунини ҳидлаш-ни тавсия этган.

Бироқ аллергия ва ошқозон яраси бўлган, тур-ли сурункали касалликлари аниқланган беморлар уни истеъмол қилишдан олдин мутахассис билан маслаҳатлашгани маъқул.

Муҳаббат ТУРСУНХЎЖАЕВА,
ИИБ Марказий поликлиникаси
шифокори.



Здоровье

ОТКУДА БЕРЕТСЯ
ГРИБОК НОГТЕЙ?

Грибок ногтей (онихомикоз) вызывают микроскопические грибки, которые поражают ногтевую пластину и кожу вокруг нее. Чаще всего заболевание встречается у пожилых людей – с возрастом ногти становятся более сухими и уязвимыми.



Факторы риска: ослабленный иммунитет, нарушенное кровообращение в ногах, хождение босиком в бассейнах и спортзалах, тесная и недышащая обувь.

Полезный совет

Следите за состоянием кожи стоп. Грибок часто «начинается» не с ногтя, а с кожи между пальцами – с легкого зуда, покраснения или шелушения. Регулярно увлажняйте кожу, избегайте трещин и используйте противогрибковую пудру или спрей после душа. Это поможет остановить инфекцию еще до того, как она доберется до ногтей.

Простые меры гигиены и выбор удобной обуви помогут защитить ваши ногти.

ГИМНАСТИКА ДЛЯ УСТАВШИХ ГЛАЗ

Современный ритм жизни заставляет нас часами смотреть в экраны телефонов и компьютеров. Из-за этого глаза быстро устают, появляется сухость, напряжение и снижается острота зрения. Чтобы поддержать здоровье глаз, достаточно регулярно выполнять несколько простых упражнений, которые занимают всего несколько минут.

1. Частое моргание (2 минуты).

– Быстро моргайте в течение двух минут.

Помогает нормализовать внутриглазное кровообращение и увлажняет роговицу.


2. Движения глазами в стороны.

– Переведите взгляд вправо, затем плавно – влево;

– повторите в обратном направлении. Укрепляет мышцы глаз и снижает напряжение.

3. «Погружение в темноту».

– Закройте глаза ладонями и пред-ставьте полную темноту.



Расслабляет зрительный нерв и способствует выработке родопсина – вещества, необходимого для ясного зрения.

4. Вращения головой.

– Медленно вращайте головой вправо-влево и вверх-вниз.

Улучшает кровообращение и снимает мышечные зажимы в области шеи.

Регулярное выполнение этой гимнастики поможет уменьшить усталость, сохранить остроту зрения и поддержи-вать здоровье глаз.





Men ham
posbon
bo'laman!

Ўқишни тавсия этаман

ҲАҚ СЎЗ


Ўткир Ҳошимов ўз ижодида ҳамиша ҳақ сўзни айтишга интилган. Шу боис ҳикоя, пьеса, романлари халқимизнинг севимли асарлари қаторидан ўрин олган.

Адибнинг «Муҳаббатнинг сирли эртаги» номли китоби «Нур борки, соя бор» романи билан бошланган. Ушбу асар инсон қалби ва жамият руҳига нур сочувчи роман ҳисобланади.

Асарни ўқиркансиз, ҳаётда нур ҳам, соя ҳам ҳамнафаслигини, яхши ва ёмон, ҳалол ва хиёнат, муҳаббат ва нафрат каби икки қарама-қарши кучнинг мувозанати ҳаётнинг бир бўлаги эканлигини ҳис этасиз.

Романдаги образлар турмушда учрайдиган реал шахсларга жуда яқин бўлганлиги сабабли, ўқувчи қалбидан жой ола билган. Қалблар оламига нур соча билганлиги учун ҳам, қийин даврларда ҳам умидни йўқотмасликка чақирувчи нидони сеза оласиз. Ҳаёт ҳақида мулоҳаза қиласиз, жамиятни эса бир ойнадек тасаввур этасиз.

Китобдан жой олган «Оқ булут, оппоқ булут» ҳикояси ҳам содда, теран маъноли асарлардан ҳисобланади. Унда табиат манзаралари орқали инсон қалбининг нозик ҳиссиётлари акс эттирилган.



Тўпلامдаги «Бахт» деб аталган ҳикояда эса, ўзганинг бахти учун ўз бахтидан воз кечган Муниранинг ҳаёти кўз олдимизда гавдаланади. Беш ёшли Нилуфарнинг қорбободан мен ҳам бахт сўрардим, кейин сизга берардим, сизда кўп-кўп бахт бўларди, деган сўзларидан нафақат Муниранинг, балки китобхоннинг ҳам юраги бир қалқиб кетади.

«Муҳаббатнинг сирли эртаги» ушбу тўпلامдаги сўнгги ҳикоя бўлиб, уни ўқиркан-



сиз, ҳаётнинг сирли, оғрикли нуқталарини, гоҳида ғамгин, гоҳида эса шодликка умид билан тўлганини ҳис этасиз. Адиб ҳар сўзини ҳаётдан олганлиги, қалбдан гапирганлиги боис асарда инсонни ҳис қилишга, ўйлашга ҳамда севишга ўргата олади.

Албатта, ҳикоянинг таъсирчан услубда тақдим этилгани ёзувчининг ютуғидир. Асарда икки инсон ўртасидаги туйғу энг буюк бойлик сифатида тасвирлаган. Бу эса одамларга бир-бирини қадрлашни ўргатади, десак, муболаға бўлмайди. Бир сўз билан айтганда, бу китобни мутолаа қилиб афсусланмаймиз.

Гўзал ЖАФАРОВА,
ўз мухбиримиз.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(12 – 18 январь)

Қўй (21.03 – 20.04). Бу ҳафта сизни янги ҳодисалар ва ўзгаришлар кутмоқда. Бу даврда ўзингизни яхши ҳис қиласиз, саломатлик билан боғлиқ муаммолар кузатилмайди. Дам олиш кунлари янги танишлардан меҳмондорчиликка таклиф олишингиз мумкин.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Ҳафтанинг илк кунлари бутун иродани бир муштга тўплаб, фаолроқ ҳаракат қилинг. Оғир бошланган ҳафтанинг иккинчи ярмида атрофдагилар билан муносабатингиз самимийлашиб, ўзингизни енгил ҳис қиласиз. Дам олиш кунлари режалаштирилмаган харажатлар кузатилиши мумкин.

Эгизаклар (21.05 – 21.06). Душанба куни фойдали нарсалар пул тикиш ҳақида ўйлаб кўринг, эҳтимол, бу билан молиявий ҳолатингизни яхшилаб олишга эришасиз. Бу давр иш муносабатларини мустаҳкамлаш учун қулай бўлиб, ўз режаларингиз ҳақида эътиборли танишларга сўзлаб беришингиз мумкин.

Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Ҳафта боши фаол ва қатъий ҳаракатларни талаб этади. Янги танишувлар нафақат фойда олиб келувчи алоқаларни ўрнатиш, балки ажойиб инсонлар билан танишиш имкониятини беради. Ишбилармон одамлар учун бу ҳафта омадли келади.

Арслон (23.07 – 23.08). Бу ҳафта сиз учун ёқимли лаҳзаларга бой бўлади. Яқинларингиздан кутилмаган совға олишингиз мумкин. Уларга эътибор ва ғамхўрлик билан жавоб қайтаринг. Дам олиш кунларини саломатликни мустаҳкамлашга, мириқиб ҳордиқ чиқаришга бағишланг.

Паризод (24.08 – 23.09). Ҳафтанинг биринчи ярми бироз оғир кечади. Ўзаро тушунмовчилик ва муросяга келмаслик атрофдагилар билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Ҳафтанинг сўнггида кайфиятингиз кўтарилиб, қўл урган ишларингиз осон ва енгил ҳал бўла бошлайди.

Тарози (24.09 – 23.10). Бу ҳафта учун тузган режаларингизнинг аксарияти амалга ошиши мумкин. Келиб тушадиган молиявий таклифларга жиддий аҳамият қаратинг. Оилавий ҳаётда кўпроқ меҳр улашишга ҳаракат қилинг.

Чаён (24.10 – 22.11). Бу ҳафта юз берадиган барча воқеа-ҳодисалар устида жиддий мулоҳаза юритиш мақсадга мувофиқдир. Яхшилаб ўйлаб кўринг, сўнгги пайтларда яқин инсонларнинг истак-хоҳиш ва қизиқишлари ҳақида унутиб қўймадингизми? Шуларнинг ҳаммасини тарози палласига қўйиб, холис хулоса чиқаришга ҳаракат қилинг.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Мазкур ҳафтадаги кўтаринки кайфият атрофдагилар ва яқинларингиз билан муносабатларга ижобий таъсир кўрсатади. Ўз маблағларингизни натижали лойиҳаларга сарфланг. Фикр-ўйларингизни қулоқ тутиб ҳаракат қилинг, улар чинакам йўналтирувчи куч ҳисобланади.

Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Сиз учун ҳафта молиявий масалалар билан боғлиқ учрашувларга бой бўлади. Бироқ харид қилишдан олдин яхшилаб ўйлаб кўрган маъқул. Ҳафта охирида тақдирингизни ўзгартириб юбуровчи кутилмаган инсонлар билан танишув юз бериши мумкин.

Қовға (21.01 – 19.02). Ҳафта боши иш жараёнлари – турли музокаралар, учрашувлар, фойдали алоқалар ўрнатиш учун қулай давр. Чоршанба ва пайшанба кунлари шовқинли ва қувноқ давралардан узоқ туринг. Якшанбани руҳан енгиллашиш ва мириқиб дам олишга бағишлаган маъқул.

Балиқ (20.02 – 20.03). Ҳафтанинг иккинчи ярмида таранг асабларни бўшаштиринг, ижодий режаларни амалга ошириш ҳақида ўйланг. Бу давр иш муносабатларини мустаҳкамлаш учун қулай бўлиб, ўз режаларингиз борасида эътиборли танишлар билан маслаҳат қилишингиз мумкин.

Nazm

JADIDLAR

Taqdir erkalatgan qizlar, yigitlar
Sohilda sayr qilib, atirgul hidlar.
Xayolchan boqadi g'oziy shahidlar...
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Shaxsiy namuna yo'q, chunki lbrat yo'q,
Olimlar juda ko'p, bitta Fitrat yo'q,
Shu sabab majol bor, kuch bor, qudrat yo'q,
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Ular g'isht qo'ygan, biz toshlar otamiz,
Ular so'z yig'ganlar, biz gap sotamiz,
Ular kun kutgan, biz oylik kutamiz,
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Tavallo, Qodiriy, Cho'lponlar qayda?
Hamzaxonlar qayda, Usmonlar qayda?
Og'iz juda katta, yuraklar mayda,
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

O'shalar bizlarning bobolarmikan?
Bizdan o'zlarini topolarmikan?
Bizni nabiram deb tan olarmikan?
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Ular maktab qurgan, biz uy quramiz,
Ular g'oya surgan, biz o'y suramiz.
Yoppa tomoshabin bo'lib turamiz,
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Qopog'on davr edi, qattol, qatag'on,
Otilib chiqqanni shartta otag'on...
Bugun yuki yengil tuya yotag'on...
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.



O'ziga kelmaydi o'zdan ketganlar,
Ixlos qo'yib shayton dumin tutganlar...
Qani yurt deb o'zini unutganlar?
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

She'r avjida birdan qalam sekinlar,
Buyuk ustozlarim nima derkinlar?
So'nggi jadid edi Abdulla, Erkinlar...
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Ufqqa urilib, qaytib kelgan o'q
Mening yuragimni teshib o'tgan cho'g'.
Muallimlar serob, Avloniylar yo'q.
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Ta'lim-tarbiyani najot bilganlar,
Ilmiga o'zlari amal qilganlar.
Qarang, amal deb o'z jonin yulganlar,
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Maishat, to'y, hasham bosh maqsad hamon,
Gapdan boshqa gap ham bor, ey qadrdon!
Hamma zamonda ham kelmaydi zamon,
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Zanglagan zehnimni charxlab beradigan,
Umrin savdosini narxlab beradigan,
Shu she'rni o'g'limga sharhlab beradigan
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Iqbol MIRZO,
O'zbekiston xalq shoiri.

**Kelgin, qizim, gul chizamiz,
Butun olam chaman bo'lsin.
Tuyganimiz – tinchlik, shodlik,
Suyganimiz – Vatan bo'lsin!**



Gazetamizning
elektron variantini
ushbu QR-kod
orqali o'qishingiz
mumkin.



Suratda: Navoiy viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash xizmati bo'linma boshlig'i,
katta leytenant Rustam Vafoyev qizi E'zoza bilan.

JUMBOQ

Azaldan o'ng oyoqni bosib ish boshlash xayrli hisoblanadi. Ota-bobolarimiz bajaradigan har bir ezgu ishning zamirida «o'ng» qoidasi bor. Masalan, o'rindan o'ng tomon bilan turish, «ishing o'ngidan kelsin» deb niyat qilish, mehmonga bor-ganda darvozadan o'ng oyoq bilan kirish va hokazo. Ammo huquq-tartibot organlari bir jarayonida o'ng oyoq qoidasiga amal qilinmas ekan.

Savol: o'ng oyoq qoidasiga qachon amal qilinmaydi?

(Ushbu jumboqning javobini gazetamiz sahifalaridan izlang).

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Sarvar SOBIROV
Yuliya KIM

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilizimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 22.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
46258 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.